

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**Fakultet:** Servis va turizm

**Kafedra:** Xalqaro turizm va turizm servisi

**«Himoyaga tavsiya etildi»**

Kafedra mudiri, PhD

Norkulova D.Z.

Bayonnoma №10.28-may 2019 y.

*5610200 – “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish”*

**MXT-115 guruh talabasi Abdulina Aziza  
Arzikulovnaning**

**“Samarqand viloyatida mehmon uylarini tashkil etish  
va rivojlantirish istiqbollari”**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: PhD D.Z.Norkulova**

**SAMARQAND – 2019**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

<b>Fakultet</b>	Servis va turizm
<b>Kafedra</b>	Xalqaro turizm va turizm servisi
<b>Ta’lim yo‘nalishi</b>	<b>5610200 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish</b>

**«KELISHILDI»**

Kafedra mudiri, pHd

Norkulova D.Z. \_\_\_\_\_

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2019 y.

Bitiruv malakaviy ishi (BMI) bo‘yicha

**TOPSHIRIQ VARAQASI**

**Ijrochi:** “5610200 – “Mehmonxona xo‘jaligini tshkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi MXT-115guruh talabasi Abdulina Aziza Arzikulovna

**1. Bitiruv malakaviy ishning mavzusi:** “Samarqand viloyatida mehmon uylarini tashkil etish va rivojlantirish istiqbollari”

Bitiruv malakaviy ish mavzusi va rahbari institut rektorining 2018 yil 28-dekabrdagi 325-T sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**2. Bitiruv malakaviy ishni tugatish muddati** 2019 yil 23-may

**3. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha birlamchi ma'lumotlari va talablari**  
(BMI bajarishda zarur bo'ladigan qonunlar, adabiyotlar manbai, laboratoriya-  
ishlab chiqarish ma'lumotlari va dalillari)

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2011
2. "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari.-T.: Adolat, 2000, 131-140 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora – tadbirlari to'g'risida»gi 2016 – yil 2 – dekabrdaqi PQ – 2666 – sonli qarori. //“Lex.uz”;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 2016 – yil 2 – dekabr PQ – 2666 – sonli qarori. //“Lex.uz”.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi» gi 2017 – yil 7 – fevraldaqi PF – 4947 – sonli farmoni. //“Lex.uz”.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi nizom 2017 – yil 6 – aprel, 189 – sonli qaror.// “Lex.uz”.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018 – yil 3 – fevral PF – 5326 – sonli farmoni. //“Lex.uz”.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-dekabrdaqi «2018 yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida» gi PF-5290-sonli farmoni. //“Lex.uz”.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 – yil 6 – fevral PQ – 3509 – sonli qarori. //“Lex.uz”.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 – yil 6 – fevral PQ – 3510 – sonli qarori. //“Lex.uz”.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7-fevraldaqi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3514-sonli qarori//“Lex.uz”.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 martdaqi «2018-2019 yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3609-sonli qarori. //“Lex.uz”.

**4. Bitiruv malakaviy ish bajariladigan ishlar tartibi, ko'riladigan masalalar, tarkibiy qismlari, hisoblashlar natijalari va amaliy ahamiyatini tushuntirib beruvchi tahlil natijalari** (mavzuning dolzarbligi, BMI iqtisodiy,

ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik, mehnat muhofazasi, hayot faoliyati xavfsizligi va x.k.)

**5. Grafik materiallari ro'yxati** (jadvallar, diagrammalar va h.k.)

1-jadval –

1-rasm -

**6. BMI bo'yicha ma'lumotlar to'plash hamda tadqiqot ishlari olib borish manbalari va joylari** (o'quv zali va xonalari, ilmiy kutubxona, laboratoriya, tashkilot, korxonalar, ilmiy yoki ta'lim muassasasi).

*SamISI axborot-resurs markazi va "Xalqaro turizm va turizm servisi" kafedrasining kutubxona fondiga tegishli bo'lgan turizmga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalarning ma'lumotlari va internet saytlari.*

**7. BMI ni bajarish uchun tavsiya qilinadigan ilmiy, o'quv-uslubiy va boshqa axborot manbalari** (darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruzalar matni, monografiya, ilmiy maqolalar va h.k.)

1. Amriddinova R.S. Mehnat resurslarini boshqarish asosida turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati turizm korxonalarini misolida) /dis... i.f.n. Samarqand-2012.

2. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2018 y.

3. Hayitboev R., Haydarov S., Abduxamidov S., Daminov M., Xamitov M. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish. O'quv qo'llanma. – S.: SamISI, 2016.-176b.

4. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasining "Osnovie pokazateli razvitiya turizma i otdixa v respublike Uzbekistan v 2016 godu" nomli statistik byulleteni ma'lumotlari.

5. Tuxliyev I.S, Qudratov G'.H., Turizm iqtisodiyoti. –S.: SamISI., 2007.

6. Tuxliyev I.S. va boshqalar. "O'zbekistonda turizm xizmat bozorini rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy muammolari" nomli monografiya. T.: "Iqtisodiyot" 2012.

7. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2014. – 389 b.

**8. BMI bajarishda zarur bo'lgan maslahatlar va topshiriqlar ro'yxati** (har bir bo'lim bo'yicha olinadigan maslahatlar ko'rsatiladi).

Bo'limlar va boblar nomi	Maslahatchilar, ilmiy rahbar (familiyasi, ismi va lavozimi)	Topshiriqni bajarish muddati	Topshiriqni berdi (imzo)	Topshiriqni oldi (imzo)
--------------------------	---	------------------------------	--------------------------	-------------------------

<b>I.Bob.</b> Mehmon uylarini tashkil etishning nazariy asoslari	Ilmiy maslahatchi: prof. I.S.Tuxliyev Ilmiy rahbar: D.Z.Norkulova	Yanvar		
<b>II. Bob.</b> Samarqand viloyatida mehmon uylarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari	Ilmiy maslahatchi: prof. I.S.Tuxliyev Ilmiy rahbar: D.Z.Norkulova	Fevral		
<b>III.Bob.</b> Samarqand viloyatida mehmon uylarini rivojlantirish yo'llari	Ilmiy maslahatchi: prof. I.S.Tuxliyev Ilmiy rahbar: D.Z.Norkulova	Mart –Aprel		

**9. BMI ni tayyorlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar rejasi**

№	Bajariladigan ishlar ro'yxati	Ijro muddati	Taxminiy xajmi (bet)	Ishni bajarilganligi xaqida rahbar imzosi	Izoh
1	BMI mavzusini tasdiqlash	Dekabr			
2	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish (yordamchi mulohaza va fikrlar)	Yanvar			
3	Masalaning qo'yilishi. Mavzuning dolzarbligi, yechilishi yoki o'rganilishi lozim bo'lgan masalaning mohiyatini va maqsadini	Fevral	2-5		

	yoritib berish (kirish qismi)				
4	BMI nazariy qismini tayyorlash (1-bob)	Fevral	6-23		
5	BMI tahliliy natijalarini tayyorlash (2-3 boblar) (Olib borilgan tajribalar, tadqiqot ishlari, natijalarni tahlil qilish va tortibga solish – bob, bo‘lim yoki qismlar bo‘yicha ajratish)	Mart-aprel	24-63		
6	Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bo‘yicha xulosa berish hamda tadbiq sohalari va usullariga oid takliflar tayyorlash	May	64-69		
7	BMI xomaki variantining matnli qismini tayyorlash	May			
8	Xayot faoliyati xavfsizligi va mexnat muhofazasi qismini tayyorlash)	May	52-58		
9	BMIning dastlabki himoyaga taqdim qilish	May			
10	BMIning rasmiylashtirish, uning himoyasi uchun zaruriy ko‘rgazmali vositalarni (jadvallar, rasmlar, grafiklar, diagramma, maket, stend, va h.k.) tayyorlash	May			
11	BMIning to‘liq tugatib, taqrizlar va rahbar mulohazasini olish	May	Prezentatsiya tayyorlash		

	uchun tayyorlash, himoyaga chiqish matni va taqdimotini tayyorlash				
12	BMI ni himoya qilish	Iyun			

**BMI rahbari**

**D.Z.Norkulova**

**Kafedra mudiri**

**PhD Norkulova D.Z.**

***Topshiriqni oldim***

***A.A.Abdulina***

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1-BOB. Mehmon uylarini tashkil etishning nazariy asoslari.</b>	<b>12</b>
1.1 Mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi joylashtirish vositalarining turlari .....	12
1.2 Mehmon uylarining o'ziga xos xususiyatlari.....	22
1.3 Mehmon uylarini tashkil etishda xorij tajribasi.....	25
<b>2-BOB. Samarqand viloyatida mehmon uylarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.</b>	<b>31</b>
2.1 O'zbekistonda oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	<b>31</b>
2.2 Samarqand viloyatida oilaviy mehmon uylarini tashkil etishning tashkiliy masalalari .....	41
2.3 Samarqand shahrining "Eski shahar" qismida tashkil etilgan oilaviy mehmon uylarining o'ziga xos jihatlari.....	<b>51</b>
<b>3-BOB. Samarqand viloyatida mehmon uylarini rivojlantirish yo'llari.</b>	<b>58</b>
3.1. Oilaviy mehmon uylarining milliy interyerini yaratish.....	58
3.2. Mehmon uylarining mehnat munosabatlari etikasini yaratish.....	<b>62</b>
3.3. Oilaviy mehmon uylarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari.....	<b>72</b>
<b>XULOSA</b> .....	78
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	83



## KIRISH

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biridir. O'zbekistonda ham turizm sanoatini modernizatsiya qilish, sohani yanada rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, milliy turizm mahsulotlarini ko'paytirish va ularni jahon bozorlarida targ'ib qilish, turizm tarmog'ini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Buning samarasida mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar tobora ko'paymoqda. Masalan, har yili O'zbekistonga dunyoning turli mintaqalaridan 2 milliondan ortiq sayyoh kelmoqda. Ularning aksariyati Germaniya, Fransiya, Italiya, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Xitoy, Malayziya, Rossiya, Hindiston fuqarolaridir. O'zbekiston tarixiy qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyodagi yetakchi o'n mamlakatdan biridir. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarimiz butun dunyoda qadrlanadi. Mamlakatimizda sayyohlikning oilaviy turizm, yoshlar turizmi, keksalar turizmi, bolalar turizmi, ekoturizm, geoturizm, tarixiy va madaniy turizm, tibbiy, etnik, sport yo'nalishlari, alpinizm kabi ko'plab turlari izchil rivojlanmoqda. Barcha hududlarda yangi sayyohlik yo'nalishlari ishlab chiqilmoqda, transport kommunikatsiyalari va xizmat ko'rsatish izchil yaxshilanmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda 530 dan ortiq turoperator va agentlik, 430 mehmonxona faoliyat yuritmoqda. Shu o'rinda O'zbekistonda mavjud mehmon uylari sonini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Butun O'zbekiston bo'yicha 179 ta mehmon uylari tashkil etilgan ulardagi joylar soni esa 1589 tani tashkil etadi.

Oilaviy mehmon uylari qulog'imizga tez-tez chalinayotgan ushbu atama turizm sohasida yangi loyiha hisoblanadi. Mazkur yo'nalish milliy an'ana va qadriyatlarimiz, san'atimiz va madaniyatimizni dunyoga tanitish, shonli tariximiz, asrlarga guvoh obidalarimizga, ayniqsa, turmush tarzimizga

ixlosmand xorijlik sayyohlarni o'zbekona oilada yashab, dam olishlarini ta'minlayotgani bilan ahamiyatlidir.

Zero bugungi turizm sayyohlarni noodatiy turistik xizmatlar, mo'jizaviy dam olish maskanlari yohud mahalliy aholining betakror turmush tarzibilan jalb qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-sonli farmoni asosida turizm salohiyatini tubdan oshirishga, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berishga, turizm sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishiga yo'naltirilgan turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi shakllantirilishi, ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlari ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish va shu kabi turizm sohasini rivojlanishi uchun turtki bo'ladigan takliflar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-avgustdagi "Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 631-sonli qarori kuchga kirgandan so'ng qisqa muddat ichida hududlarda 100dan ortiq oilaviy mehmon uylari ochildi. Turizm sohasidagi joylashtirish vositalarining ushbu turi 2018-yilning o'zida 4000 mingdan ortiq xorijiy davlat fuqarolarini qabul qilgan.

Qarorning umumiy mazmuni hududlarimizning turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, dam olish va turizm uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, shuningdek turizm xizmatlari ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda aholining bandligi va farovonligini oshirishdan iborat.

Mehmon uyida uy egasining oila a'zolari bilan birga yashash tamoyili bilan bir vaqtning o'zida 10 nafargacha tashrif buyuruvchilarga( sayyohlarga) vaqtincha yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi xususiy uy-joy hisoblanadi.

---

Mehmon uylari loyihasini ishlab chiqishdan asosiy maqsad, mamlakatimizga xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurayotgan sayyohlarga milliy an'analarimizni ko'rsatib berish, turizm mavsumida joylashtirish vositalarining turlarini ko'paytirish, sohaga mahalliy tadbirkorlarni jalb etish, turizm sohasida oilaviy biznesni qo'llab quvvatlashdan iborat.

Dunyo miqyosida sayyohlik sohasi jadal sur'atlarda rivojlanayotganligini hisobga olsak, tashkil etilayotgan oilaviy mehmon uylari xalqimizning boy tarixi, milliy urf-odatlar va mehmondo'stligini namoyish etishda muhim rol o'ynaydi.

Mehmon uylari turizmni sohasini rivojlantirishning muhimligini anglatadi va **mavzuning dolzarbligini** ta'kidlaydi.

---

### **Mavzuning o'rganilish darajasi.**

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Samarqand viloyatida mehmon uylarini rivojlantirishda mavjud muammolarni aniqlash va rivojlantirish istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

### **Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.**

1. Turizm sohasida joylashtirish vositalarining turlari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.
2. O'zbekistonda turizm sohasida oilaviy mehmon uylarini rivojlantirish muammolarini tahlil qilish.
3. Samarqand viloyatida oilaviy mehmon uylarining o'ziga xosligini o'rganib chiqish.
4. Oilaviy mehmon uylarining milliy interyerini yaratish.
5. Turizm sohasida oilaviy mehmon uylarini rivojlantirish istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalar berish.

**Bitiruv malakaviy ishining o'rganish ob'yekti.** Samarqand viloyatida tashkil etilayotgan mehmon uylari.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Oilaviy mehmon uylarini tashkil etish va rivojlantirish muammolarini o'rganish va yechimini topishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishida berilgan takliflar amaliy jihatdan O‘zbekistonda oilaviy mehmon uylarini rivojlantirishga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 65 bet bo‘lib, 1 ta jadval va 18 ta rasmdan iborat.

## **I-BOB. MEHMON UYLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi joylashtirish vositalarining turlari**

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biridir. O'zbekistonda ham turizm sanoatini modernizatsiya qilish, sohani yanada rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, milliy turizm mahsulotlarini ko'paytirish va ularni jahon bozorlarida targ'ib qilish, turizm tarmog'ini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, mehmonxonalar turizm sohasining eng yuqori o'rinlarida turuvchi vositalar hisoblanadi.

Mehmonxona – bu butun kun davomida murakkab texnologik jarayon sodir bo'luvchi bino ( yoki binolar majmui) bo'lib, unda mijozlarga nomerlar (yoki nomerlardagi joylar) berilishi, shuningdek mehmonxona mahsulidan shinam, qulay va xavfsiz foydalanishga yo'naltirilgan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilishi kafolatlanadi.

Zamonaviy mehmonxona faqat yashash joyi bo'lib xizmat qilmaydi. Ko'pincha nomerlar fondining bir qismidan firmalar va muassasalarning ofislari, vaqtinchalik vakolatxonalari sifatida ham foydalaniladi. Mehmonxona ishining hozirgi rivojlanishi jahon amaliyotida mijozga (mehmonxona xizmatlaridan foydalanuvchiga) mazkur xizmatlar bozorlaridagi narx-navoga qarab ko'p variantli mehmonxona servisini taklif qiladi.

Bundan 100 yil oldin joylashtirish korxonalarining faqat ikki turi mavjud bo'lgan:

- Jamiyatning oily tabaqasi vakillari uchun hashamatli mehmonxonalar;
- Aholining qolgan qismi uchun karvonsaroylar.

Vaqtini yo'lda o'tkazishga majbur bo'lgan odamlarda tanlash imkoniyati bo'lmagan. Bugungi kunda mehmonxona mahsulidan foydalanuvchilarga

joylashtirish korxonalarining rang-barang shakllari va turlari, chunonchi, iqtisodiy klassga mansub bo'lgan hashamatli otellar va mehmonxonalar, motellar, kempinglar va h.k. taklif qilinadi. Har bir odam o'z didi va puliga qarab o'zi uchun ma'qul variantni tanlash imkoniyatiga ega.

O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlari ancha jo'shqin rivojlanmoqda. Bu mehmonxona servisinde band bhlgan tijoratchilarga katta imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekiston bilan chet elda mehmonxona ishini tashkil etishdagi keskin tafovutlar asta-sekin yo'qolib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining mehmonxona korxonalari mijozlarga xizmat ko'rsatish saviyasini, nomerlarning shinamligi va qulayligi darajasini, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning malakasini izchil oshirib bormoqdalar. Nomerlar fondining sig'imi. Mehmonxona sig'imi doimiy uxlash joylarining miqdori bilan belgilanadi. Mehmonxonalar sig'imiga qarab turli mamlakatlarda har xil tasniflanadi. Masalan, Shveysariya va Avstriyada 100 tadan kam joyga ega mehmonxonalar kichik mehmonxona, 100-200 ta joyga ega mehmonxonalar o'rtacha mehmonxona, 200 tadan ortiq joyga ega mehmonxonalar yirik mehmonxona; Chexiyada 120 tadan kam joyga ega mehmonxonalar kichik mehmonxona, 500 tagacha joyga ega mehmonxonalar o'rtacha mehmonxona, 500 tadan ortiq joyga ega mehmonxonalar katta mehmonxona; AQShda 100 tadan kam nomerga ega mehmonxonalar kichik mehmonxona, 500 tagacha nomerga ega mehmonxonalar o'rtacha mehmonxona, 500 tadan ortiq nomerga ega mehmonxonalar yirik mehmonxona hisoblanadi<sup>1</sup>.

Bizning mamlakatimizda mehmonxonalar sig'imiga qarab rasman tasniflanmaydi, shu bois ularni quyidagi guruhlash taklif etiladi: 150 tagacha joyga (100 tagacha nomerga) ega mehmonxonalar kichik mehmonxona, 150-400 ta joyga (300 tagacha nomerga) ega mehmonxonalar o'rtacha mehmonxona, 400 tadan ortiq joyga (300 tadan ortiq nomerga) ega mehmonxonalar katta mehmonxona hisoblanadi. Mamlakatimizda asosan ma'lum ish yuzasidan nisbatan qisqa muddatga keluvchi odamlarga, shuningdek har xil maqsadda sayohat qilayotgan fuqarolarga

---

1. Fillipovskiy Ye.Ye., Shmarova L.V. Ekonomika i organizatsiya gostinichnogo xozyaystva. M.: FiS, 2005

mo'ljallangan umumiy tipdagi mehmonxonalar ayniqsa keng tarqalgan. Bunday mehmonxonalar shaharning markaziy qismida, jamoat, ma'muriy, savdo markazlari yaqinida joylashadi va shaharning turli tumanlari bilan yaxshi transport aloqasini nazarda tutadi. Mazkur mehmonxonalar odatda maxsus ko'kalamzorlashtirilmagan nisbatan kichkina yer maydonlariga ega bhladi. Belgilangan normalarga ko'ra, yer maydoni hajmi mehmonxona sig'imiga qarab bir joyga 15-55 m ni tashkil etadi. Idoraviy mehmonxonalar umumiy tipdagi mehmonxonalarning bir turi hisoblanadi. Bunday mehmonxonalar asosan ma'lum idora, muassasa yoki korxonaga ish yuzasidan tashrif buyurgan odamlar yashashi uchun mo'ljallanadi. Idoraviy mehmonxonalar tegishli idora yaqinida yoki jamoat transporti yaxshi qatnaydigan joyda quriladi. Bunday mehmonxonalarda umumiy xonalar thplami ko'pincha ancha cheklangan, hzi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar turiga va undagi umumiy ahamiyatga molik xonalar tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Chet elda anjumanlar uchun mo'ljallangan maxsus mehmonxonalar qurish keng tarqalgan. Bunday mehmonxonalar odatda «kongress-otel» yoki «konferens-otel» deb nomlanadi. Chet elda shuningdek ishbilarmonlar uchun ham maxsus mehmonxonalar – «biznes-otellar» quriladi. Odatda bu mehmonxonalarning shinamlik darajasi juda yuqori bo'ladi. Ularda kongresslar o'tkazish uchun zallar, majlislar, konferensiyalar, simpoziumlar uchun alohida joylar, har xil turdagi restoranlar, aloqa va bank bo'limlari, teletayp, teleks, basseynlar, saunalar, kegelbanlar faoliyat ko'rsatadi.

Turistik mehmonxonalar faol dam olayotgan turistlar uchun mo'ljallanadi. Mamlakatimizda bunday mehmonxonalar asosan uyushtirilgan gruppaviy turizm – ekskursiya va sport turizmi uchun mo'ljallangan.

Turistik mehmonxonalar shaharda, shahar tashqarisida, turistik ob'ektlar yaqinida, yaxshi tabiiy omillarga ega joylarda, ko'pincha yashil massivlar yaqinida quriladi.

Turistik mehmonxonalar, shuningdek kurort mehmonxonalari yer maydonlarining hajmi umumiy tipdagi mehmonxonalarning yer maydonlaridan ancha katta bo'ladi (1 mingtagacha o'rinli mehmonxonalarda bir o'ringa 75m<sup>2</sup> va

1-2 ming o‘rinli mehmonxonalarda bir o‘ringa 65m<sup>2</sup>). Kurort mehmonxonalari va turistik mehmonxonalarning, kurortlarda va dam olish zonalarida joylashgan motellar va keminglarning ko‘kalamzorlashtirilgan yer maydonlari jami yer maydonining kamida 5% ni tashkil etishi kerak.

**Taymsher** – mehmonxona xizmatlarining nisbatan yangi turi. Uning nomerlar fondi odatda 50-250 nomerdan tashkil topadi. Alohida qurilmalarga ega bo‘lishi ham mumkin. Kvartira tipidagi nomerlar fondiga ega, xizmatlar khrsatish shart-sharoitlari kurort mehmonxonalaridagi o‘xshash. Alohida kvartiralar xususiy mulkdorlarga sotiladi, ammo taymsher to‘liq boshqaruvchi kompaniya tomonidan nazorat qilinadi.

Taymsher bahosi mavsum xususiyatlariga, shuningdek bu yerda bo‘lish vaqtiga bog‘liq bo‘ladi. Yilning turistlar kam keladigan vaqtlarida taymsherda yashash «oltin» mavsumdagidan ancha arzonga tushadi. Nomer egasi taymsherda yashash uchun thlagan haqqa mutanosib ravishda ma’lum vaqt mobaynida ko‘chmas mulkdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Odatda nomer 10 yil muddatga sotib olinadi. Taymsher nomuayyan muddatga foydalanish uchun sotilishi ham mumkin. Foydalanish vaqti haftalarda o‘lchanadi. Taymsher egasi o‘zi sotib olgan nomerda o‘z vaqt oralig‘i mobaynida dam olishi yoki xarid qilingan mavsum doirasida dam olish joyini xuddi shunday boshqa joyga almashtirishi mumkin.

Taymsherlardagi sotuvlarning umumiy hajmi 1991 yilda faqat Yevropada 3,74 mlrd. dollarni tashkil qildi. Taymsher kurortlari jahonning 75 mamlakatida mavjud.

**Apartmentli mehmonxonalar.** Uzoq vaqt yashashga mo‘ljallangan apartmentli mehmonxonalar, oddiy mehmonxonalarga qaraganda, foydali maydonining kattaligi va ularda mijozlar uzoq vaqt yashashi bilan farq qiladi. Nomerning qo‘shimcha maydoni odatda qulay kreslo va divan qo‘yilgan mehmonxona hamda ko‘p funksiyali qaznoqqa ega kichik oshxona shaklida bo‘ladi. Apartmentli mehmonxonalar (yoki *apartotellar*) oilasining ko‘chib kelishi, uzoq muddatli xizmat safari, seminarlarga qatnash zarurligi tufayli



shaharda uzoq vaqt yashashga majbur bo'lgan o'z mijozlariga uydagiga o'xshash shart-sharoitlar yaratadi. Aksariyat mehmonlar nomerni uzoq muddatga oladi. Yashash muddatining uzoqligiga qarab ularga ko'pincha chegirma beriladi. Bunday mehmonxonalarda ovqatlanish korxonalari, biznes markazi, dam olish joylari nazarda tutiladi.

Joylashtirish ob'ektlarining yana bir shakli – *pansionlar* ham jahon amaliyotida ancha keng tarqalgan. Ularda yashash, odatdagi mehmonxonalarda yashashga qaraganda, ancha arzon turadi. Mehmonxonadan pansionning asosiy farqi shundaki, u toifalarga ajratilmaydi. Ammo bu pansionda yashash sharoiti mehmonxonadagi yashash sharoitidan yomon degan ma'noni anglatmaydi.

Pansion joylashtirish ob'ektlarining erkin shakli bo'lib, u odatda qurilish paytida mehmonxona sifatida tasavvur qilinmagan binolarda tashkil etiladi. Pansionning o'ziga xos xususiyati shundaki, u nisbatan kichkina, odatda 10-20 kishiga mo'ljallangan nomerlar fondiga ega bo'ladi. Ko'pincha pansion bir oilaga tegishli bo'ladi. Bu oila pansionni boshqarish bilan birga, mijozlarga xizmat ham ko'rsatadi. Pansionda yashash bahosiga faqat uy sharoitida tayyorlangan nonushta kiritiladi. Bu yerda muhit mehmonxonadagiga qaraganda iliqroq bo'ladi. Mana shu jihat, narxlarning pastligi bilan birga, mijozlarni o'ziga tortadi.

*Sportchilar uchun mo'ljallangan mehmonxonalar* sport komplekslari qoshida yoki tabiiy sharoitlariga ko'ra ma'lum sport turini rivojlantirish imkonini beruvchi joylarda quriladi. Sportchilar uchun mo'ljallangan mehmonxonalarda sport anjomlarini ijaraga berish shoxobchalari, dam olish uchun mo'ljallangan bir qancha muassasalar faoliyat ko'rsatadi, sport va tibbiy ahamiyatga ega binolar va qurilmalar mavjud bo'ladi. Qoida tariqasida, bu yerda umumiy ovqatlanish va dam olish korxonalari ham faoliyat ko'rsatadi.

So'nggi yillarda mehmonxonalarining binolari boshqa maqsadlarga mo'ljallangan muassasalar: kongress-markazlar, ma'muriy va savdo muassasalari, konsert va ko'rgazma zallari va hatto turar joy binolari bilan uyg'unlikda barpo etilmoqda, ular bilan bitta binoda yoki bitta kompleks tarkibida joylashtirilmoqda.

*Avtoturistlar uchun mo'ljallangan mehmonxonalar va motellar* (motor-otellar) shosse yo'llar yaqinida joylashadi. Shinam nomerlar va restoran (yoki qahvaxona)ga hamda umumiy ahamiyatga molik boshqa xonalarga ega mehmonxona binosidan tashqari, bu mehmonxonalar va motellar avtotransport vositalarini parkovka qilish va ularga texnik xizmat ko'rsatish imkonini beradi (avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasi, ta'mirlash ustaxonalari, texnik xizmat khrsatish stansiyasi va h.k.ga ega bo'ladi).

Motellarning joylashishi ularning vazifasi, shaharlar va shaharchalarning joylashgan o'ri, avtomobil yollari tarmog'i, kelish yo'llarining mavjudligi, muayyan joyning tabiiy-iqlimiy sharoitlari, davolash manbalari, tarixiy joylar hamda turistik jihatdan diqqatga sazovor boshqa joylarning mavjudligi bilan belgilanadi.

Avtoturistlar dam olishi uchun qulay shart-sharoit yaratish, avtomobil yo'lining shovqini va changidan nomerlarni tashish maqsadida motelning dam olish zonasi bu yoldan ma'lum masofa (50-250m) uzoqda joylashishi kerak. Bunda uchastka muayyan turistik ob'ekt yo'lidagi avtoturistlar asosiy oqimi yo'nalishining hng tomonida joylashgani ma'qul.

Motellarni joylashtirishda mamlakatning eng diqqatga sazovor tarixiy joylari va hududlarini bog'lovchi oldindan belgilangan marshrutlar bilyab uzoq muddatli sayohatlar tashkil etish imkoniyatini nazarda tutish zarur. Bu holda yuqorida zikr etilgan barcha talablardan kelib chiqib motellar tarmog'ini kompleks joylashtirish avtoturistlarda doimiy qiziqish uyg'otadi va ular sayohat chog'ida rang-barang taassurotlar olishini ta'minlaydi.

Chet elda motellar qurish amaliyotida kam qavatli (ikki qavatdan baland bo'lmagan) motellar an'anaviy hisoblanadi. Chunonchi, AQShda 60 ming motelning 80% dan ko'prog'ini kam qavatli motellar tashkil etadi.

Darhaqiqat, kam qavatli motel bir qancha ustunliklarga ega:

- avtoqhnalg'ani nomer yaqinida joylashtirish mumkin;
- konstruksiyalari juda sodda bo'ladi;
- talabdagi mavsumiy o'zgarishlarga tez moslashtirish mumkin;

- barcha nomerlarni ufqning chiroyli tomonlariga qaratib qurish mumkin;

- engil konstruksiyalardan qurilgan kam qavatli motel binosi ko'p qavatli va og'ir konstruksiyali binolarga qaraganda ancha arzonga tushadi.

**Kempinglar** mavsumiy foydalanish uchun mhljallangan «engil» tipdagi mehmonxona korxonalaridir. Ular avtoturistlar dam olishi hamda ularning avtotransport vositalari to'xtab turishi uchun mo'ljallanadi. Kempinglarda ko'rsatiladigan xizmatlarning barcha turlari soddalashtirilgan bo'ladi: uxlash joylari yozgi tipdagi, ko'pincha yog'ochdan qurilgan, isitilmaydigan binolarda yoki chodirlarda joylashadi; vanna va hojatxona asosan umumiy bo'ladi. O'ziga o'zi xizmat ko'rsatishning har xil shakllari ancha keng tarqalgan. Ba'zan kempinglar qoshida avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari va avtomobillarni yengil ta'mirlash ustaxonalari bo'ladi. So'nggi yillarda «motel-kemping» aralash turi rivojlanmoqda. U motel hududida joylashgan kemping hisobiga yozda motel sig'imini kengaytirish imkoniyatini nazarda tutadi.

Joylashtirish vositalarining aralash turlari juda rang-barangdir. Masalan, chet elda, ayniqsa, AQShda mehmonxona korxonalarining quyidagi turlari qurilmoqda:

- *rotellar* – treylerli avtomashinalarda sayohat qiluvchilar uchun;

- *botellar* – suv bo'ylab sayohat qiluvchilarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan dengiz, daryo, khl bhyidagi mehmonxona muassasalari. Ularning tarkibiga turar joy binosi, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimi, suzuvchi vositalarga texnik xizmat khrsatishga ixtisoslashgan inshootlar va qurilmalar kiradi;

- *botokempinglar* – kemping tipidagi mavsumiy mehmonxona muassasalari;

- suv ustidagi mavsumiy *flotellar* va *flotokempinglar* – mehmonxona, shuningdek suzuvchi vositalarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni qishda saqlash qo'nalg'asi funksiyalarini o'zida mujassamlashtirgan muassasalar;

- *flaytellar* – shaxsiy samolyotlarning egalari uchun mo'ljallangan mehmonxonalar (masalan, AQShning Oklaxoma shtatidagi Talas shahri yaqinida joylashgan flaytel-motel) va b.

**Rotel** – ko'chma mehmonxona. Bir yoki ikki hrinli bo'limlardan iborat vagon-treyler ko'rinishida bo'ladi. Har bir bo'lim ventilyatsiya va alohida yoritish uskunasi bilan jihozlangan. Rotelda kiyim almashtirish, yuvinish joyi va hojatxona bor. Vagonning orqa qismida oshxona va muzlatgich joylashadi.

**Flaytellar**, qoida tariqasida, aholi gavjum joylardan ancha chetda joylashgan bo'ladi. Ularga faqat havo transportida borish mumkin. Flaytel yaqinida aerodrom, angarlar, ellinglar, ustaxonalar joylashadi. Tabiiyki, restoranlar, barlar, konsert zallari, dansing va sh.k. ham bo'ladi.

Ayrim flaytellarda reklama har xil kalibrli (hajmli) havo sharlarida va har xil dirijablarda sayr qilishni va'da qiladi. Flaytel qoshida havo va quyosh vannalari qabul qilish uchun mo'ljallangan bog'lanma aerostatlar ham bo'ladi. Tabiiyki, bularning barchasi juda katta pul turadi va ulardan faqat juda boy odamlar foydalanishi mumkin.

Birinchi flaytel AQShning Oklaxoma shtatidagi Talas shahri yaqinida tashkil etilgan. Bu mehmonxona korxonasining reklama bukleti vertolyotlar qo'nishi uchun maydoncha, samolyotlar uchun kichik aerodrom, uchuvchilar uchun radiostansiya va meteorologiya stansiyasi bilan bevosita aloqa qilish imkoniyatini taklif qiladi. Uchish vaqtida uchuvchilar flaytel rahbariyati bilan bog'lanib, o'zlariga nomer hamda samolyot yoki vertolyot uchun qo'nalg'a buyurtma qilishlari mumkin.

Suv bo'ylab sayohat qilayotgan turistlarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan **suzuvchi mehmonxonalar va mehmonxona komplekslari** juda ko'p mamlakatlarda, chunonchi: Fransiya, Gresiya, Shveysariya, Daniya, Niderlandiya, Shvesiya, Ispaniya va boshqalarda loyihalashtirilmoqda va qurilmoqda. Suzish vositalarining aksariyati prichallar, pirsalar, suvga tushirish va suvdan ko'tarish moslamalari, shuningdek qayiq'larni saqlash, ularni ta'mirlash va ularga yonilg'i quyish inshootlari bilan jihozlangan. Bu o'rinda shuni alohida qayd etish kerakki,

suzish vositalariga texnik xizmat ko'rsatish inshootlari va uskunalari suv bo'ylab sayohat qiluvchi turistlar uchun mo'ljallangan mehmonxona komplekslarining ajralmas qismi hisoblanadi.

«**Botel**» atamasi – mehmonxona biznesidagi yangi tushuncha (*boat* - qayiq, kema, *hotel* – mehmonxona). Odatda, botel deganda ekskuriya barjalari tipidagi suzuvchi mehmonxona tushuniladi.

Botellar mavsumiy yoki yil bo'yi ishlaydigan muassasalardir. Bu guruhga «suv turizmi markazlari» (Polsha), «dam olish bazalari-shaharchalari» (Germaniya), flotellar (Ispaniya va Yugoslaviya) kiradi.

Bu muassasalar shinamlik darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Ular eng avvalo yozgi suv turizmi, qayiq sporti yoki yelkanli sport, qishda – buyer sporti bilan shug'ullanish uchun mo'ljallangan.

Yuqorida sanab o'tilgan muassasalarning barchasi suvdagi marshrutlarning tayanch punktlari hisoblanadi. Ular suzish vositalariga texnik xizmat khrsatish kengaytirilgan dasturiga muvofiq jihozlanadi.

**Botokempinglar** suv bo'ylab sayohat qiluvchi turistlarga safarda xizmat khrsatish uchun mo'ljallangan. Turistik muassasalarning bu tipiga Polshada keng tarqalgan «suv stansiyalari» hamda Germaniyadagi «yozgi turistik shaharchalar» kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mehmonxona – bu butun kun davomida murakkab texnologik jarayon sodir bo'luvchi bino bo'lib, unda mijozlarga nomerlar berilishi, shuningdek mehmonxona mahsulidan shinam, qulay va xavfsiz foydalanishga yo'naltirilgan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilishi kafolatlanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlari ancha jo'shqin rivojlanmoqda. Bu mehmonxona servisida band bo'lgan tijoratchilarga katta imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekiston bilan chet elda mehmonxona ishini tashkil etishdagi keskin tafovutlar asta-sekin yo'qolib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining mehmonxona korxonalarini mijozlarga xizmat ko'rsatish saviyasini, nomerlarning shinamligi va qulayligi darajasini, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning malakasini izchil oshirib bormoqdalar.

## **1.2. Mehmon uylarining o'ziga xos jihatlari.**

***Oilaviy mehmon uyi nima?*** Oilaviy mehmon uyi – mazkur mehmon uyida uy egasining oila a'zolari bilan birga yashash tamoyili bo'yicha bir vaqtning o'zida 10 nafargacha tashrif buyuruvchilarga (turistlarga) vaqtincha yashash va (yoki) ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi xususiy uy-joydir. Bunda mazkur joy har bir yashovchi shaxsga 3x2 m hisobidan to'g'ri keladigan turarjoy maydoniga ega bo'lishi lozim.

Oilaviy mehmon uylari xizmatlari oilaviy mehmon uyi tashkil etish uchun yaroqli turarjoy binosiga ega bo'lgan va unda yashovchi xususiy tadbirkorlar yoki oilaviy tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ko'rsatiladi.

***Oilaviy mehmon uyi qanday tashkil etiladi?*** Oilaviy mehmon uyini tashkil etish uchun tegishli turar joyga ega bo'lgan shaxs Oilaviy mehmon uylarini ro'yxatga olish va uning yagona reyestriga kirish uchun ariza berishi kerak. Mazkur reyestr Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan yuritiladi.

Arizaga xususiy tadbirkor yoki oilaviy tadbirkorlik sub'yekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tgani to'g'risidagi guvohnoma nusxasi hamda bino va inshootga bo'lgan huquqi davlat ro'yxatidan o'tgani to'g'risidagi guvohnoma nusxasi ilova qilinadi.

Qo'mita hujjatlarni olgan kundan boshlab ularni uch ish kuni davomida ko'rib chiqadi hamda natijalar yuzasidan dalolatnomani rasmiylashtiradi.

Ushbu dalolatnoma asosida uylar yagona reyestriga kiritiladi, reyestriga kiritilgandan so'ng tegishli xizmatlarni ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Reyestriga kiritish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va ko'chirma berish uchun to'lov undirilmaydi.

Reyestr elektron shaklda yuritiladi va Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi. Reyestr Internet axborot tarmog'ida onlayn rejimida yangilab turiladi.

***Mehmon uylari egalari qanday huquqlarga ega?*** Mehmon uylari egalari turarjoy binosini o'z ixtiyoriga ko'ra O'zbekiston Respublikasining turarjoylar

to'g'risidagi qonunchiligi va Nizomda belgilangan me'yorlar doirasida tasarruf etish;<sup>2</sup>

Ijarada turuvchilarni (turistlarni) mehmon uyiga ularni Internet tarmog'i va axborot-turistik markazlari orqali, ular mavjud bo'lmagan hollarda esa, bildirish tartibida hududiy ichki ishlar organlariga murojaat qilish yo'li bilan ro'yxatga qo'yish orqali ijara shartnomasini rasmiylashtirmasdan joylashtirish;

Tashrif buyuruvchilar (turistlar) tomonidan jamoat tartibi me'yorlari buzilgan hollarda joylardagi huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro bog'lanib harakat qilish;

Turizm faoliyati sub'yektlariga berilgan imtiyozlardan qonunchilikda belgilangan tartibda foydalanish huquqlariga ega.

Mavsumiy bo'lmagan davrda mehmon uylarining egalari ro'yxatga olish va soliq organlariga mehmon uyi faoliyati vaqtincha to'xtatish va ular o'z faoliyatini vaqtincha amalga oshirmaydigan qayd etilgan davrga soliq hisoblanishini vaqtincha to'xtatib qo'yish to'g'risida ariza berish yo'li bilan vaqtincha o'z faoliyatlarini to'xtatish huquqiga ega bo'ladilar.

***Mehmon uylari egalarining majburiyatlari.*** Mehmon uylarining egalari faoliyatini qat'iy ravishda «Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizom va turizm to'g'risidagi boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirishi;

Sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyena normativlari, shuningdek, epidemiyaga qarshi va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta'minlashi;

Mehmon uylari reyestriga kiritilgan ma'lumotlar o'zgarganligi, shuningdek, o'z faoliyatini tugatganligi to'g'risida uch ish kuni mobaynida vakolatli davlat organini yozma yoki elektron shaklda xabardor qilishlari shart.

***Oilaviy mehmon uylari qanday sharoitlarga ega bo'lishi shart?*** Oilaviy mehmon uylarida umumiy foydalanish uchun sanitariya-gigiyena uzeli, vanna yoki dush kabinesi; kanalizatsiya (suv chiqarish) yoki (chiqindi to'kiladigan o'rani

---

<sup>2</sup> Kun.uz rasmiy veb sayti. 10.08.2018. Vazirlar Mahkamasining "Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"

tashkillashtirish yo‘li bilan) mahalliy inshootlar; yashash va jamoat joylarida tabiiy va sun'iy (shu jumladan fonarlar, shamlar va boshqa yoritish vositalaridan foydalanish hisobiga) yoritish; suv ta'minoti (shu jumladan, suvni to‘plash uchun idishlar o‘rnatish yo‘li bilan); o‘t o‘chirgichlar va tibbiyot dori qutisi; shoshilinch yordam xizmatlarini chaqirish imkoniyati hamda umumiy foydalanish uchun mobil yoki statsionar telefon aloqasi; tashrif buyuruvchilarni (turistlarni) joylashtirish xonalarida karavotlar yoki matraslar, karavotlar / matraslar soni bo‘yicha choyshab-jildlar majmui bo‘lishi lozim.

Tutash hududning qulay va shinam bo‘lishi, oilaviy mehmon uyiga borish yo‘llari qattiq qoplamaga (shag‘alli, yog‘ochli) ega bo‘lishi kerak.

Oilaviy mehmon uyining old tomonida «Oilaviy mehmon uyi», «Semeynyy gostevoy dom» va «Family Guesthouse» so‘zlarini o‘z ichiga olgan, oilaviy mehmon uyining o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi nomi ko‘rsatib o‘tilgan ma'lumotlar taxtasi (o‘lchami - eng kamida 60 sm x 80 sm) bo‘lishi talab qilinadi.

Shuningdek, Oilaviy mehmon uyiga kirishda o‘zbek, rus va ingliz tillarida Oilaviy mehmon uylari yagona reyestridan ko‘chirma nusxasi, shoshilinch xizmatlarning va O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Sall-markazining telefon raqamlari, ko‘rsatiladigan xizmatlar preyskuranti, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan tabiiy hodisalar, joylardagi xavflar to‘g‘risida ma'lumotlar yozilgan ma'lumotlar taxtasi bo‘lishi kerak.

Internet tarmog‘iga ulanmagan holatda yashovchilarni ro‘yxatga olish eng yaqin joylashtirish vositalari yoki turizm- axborot markazlari orqali tegishli hududiy ichki ishlar organlariga murojaat etgan holda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oilaviy mehmon uyi – mazkur mehmon uyida uy egasining oila a'zolari bilan birga yashash tamoyili bo‘yicha bir vaqtning o‘zida 10 nafargacha tashrif buyuruvchilarga vaqtincha yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi xususiy uy-joydir. Barcha boshqa joylashtirish vositalari kabi oilaviy mehmon uylari ham turizm sohasini jadal rivojlanishiga katta turtki bermoqda. Oilaviy mehmon uylarining o‘ziga xos jihatlaridan biri bu



kamharjligidadir ya'ni bu mehmon uylari nafaqat milliylikni ko'rsatib beradi balki harajatni xam kamaytirishga imkon beradi.


### **1.3.Mehmon uylarini tashkil etishda Xorij tajribasi.**



#### **1-rasm. Rotshikd jirafalarini qutqarish markazi, Keniya, Nayrobi**

Keniya poytaxti Nayrobi yaqinida ajoyib dang'illanma uy bor, huddi ertaklardagi qasrga o'xshaydi. Bu uy o'tgan asrning 30-yillarida Devid Duncan tomonidan qurilgan. 1974 yilda uni er-xotin Lesli-Melvillar sotib olib, u yerda yo'qolish arafasida turgan Rotshikd jirafalarini qutqarish markazini tashkil qildilar. Keyinchalik bu yerda otel ham ochildi.

Otelda mehmonlar uchun o'nta xona ajratilgan bo'lib, ular qadimgi rusumda jihozlangan. Ammo otelning asosiy xususiyati –jirafalardir. Ular har tong odamlar bilan muloqot qilish uchun keladilar. Hayvonlar o'zlarini mutlaqo erkin his qiladilar, ularni silash, ovqatlantirish va ular bilan suratga tushish mumkin.



## **2-rasm. Propeller Island City Lodge Berlin, Germaniya**

Nemis rassomi tomonidan yaratilgan ushbu joyni otel deyish sal noto'g'riroq. Tashrif buyuruvchilarga ko'ngillaridagi orzularini hamda qo'rqinchli tushlarini gavalantiruvchi xonalarga joylashish taklif qilinadi. 45 xonalardan hech biribir-biriga o'xshamaydi. Bu yerda olov rang xonada, qamoqxona kamerasi ko'rinishidagi xonalarda dam olish mumkin. Shuningdek, tobutda ham, ko'zgu orti mamlakatida ham uxlash mumkin. Mehmonlarga gilyotina, qafasli, ritsarli qasri, o'yin uchun kubiklardan iborat krovatlar taqdim qilinadi.




## **3-rasm. MONTANA MAGICA LODGE**

Chilida joylashgan MONTANA MAGICA LODGE yohud Sehrli tog' mehmonxonasi Chilining Patagoniyasidagi qo'riqxonalaridan birida joylashgan bo'lib, rosmana elflarning ertakli uyiga o'xshaydi. Tosh va taxtadan qurilgan mehmonxonaning tashqi tomoni o'tlar bilan qoplangan. Yashil devor bo'ylab doimo suv oqib turadi va yaqin atrofdagi harakatdagi vulqon haqida eslatib turadi. Mehmonxonaga osma ko'priklar orqali yetib olish mumkin. Uning ichi ham tabiat bilan muvofiq jihozlangan.



**4-rasm. MALMAISON OXFORD CASTLE, Oksford**



**5-rasm. MALMAISON OXFORD CASTLE**

Oksfordda joylashgan MALMAISON OXFORD CASTLE otelida yashovchilar kechqurunlari ko'lanka va sharpalarni ko'radilar. Gap shundaki, otel nafaqat mahbuslar saqlangan, balki qatllar ham bo'lib o'tgan XI asrning viktorian qamoqxonasida joylashgan.

Bu yerning interyerida qamoqxona tematikasi yaxshi saqlangan. Kameralar qulaygina xonalarga aylantirilgan. Bu yerda shuningdek restoran, pivobari bor, biroq planirovka va zulmatli ko'rinish binoning o'tmishini eslatib turadi.



**6-rasm. V8 HOTEL MOTORWORLD REGION STUTTGART**

**Germaniya, Byoblingen**



**7-rasm. V8 HOTEL MOTORWORLD REGION STUTTGART**

**Germaniya, Byoblingen**

Ushbu noodatiy mehmonxona bir paytlar Byublingen shahrining aeroporti bo'lgan binoda joylashgan. Buyer avtomobil shaydolari uchun ayniqsa, qulaydir. Otelning barcha xonalari avtomobillarga xos tematikada jihozlangan. Zapravka, avtomobillar tashlandig'i, avtoustaxona, Qadimgi Garb yo'li hamda avtoyuvish xonalarga moslangan. Ba'zi xonalarda nodir avtolar, ularning detallari va aksesuarlari joylashgan

Demak yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir mamlakatning o'ziga yarasha urf-odatlar, an'analari va milliyliigi mavjud, shundan kelib chiqib, har bir davlat o'zining oilaviy milliy uyini yaratadi. Yuqorida, bir nechta milliy oilaviy uylari haqida ma'lumot keltirib o'tilgan. Bu milliy uylarda har bir inson tarixga tushib qolgandek o'zlarini his qiladilar.

### **I-bob bo'yicha xulosalar.**

Mehmonxona – bu butun kun davomida murakkab texnologik jarayon sodir bo'luvchi bino bo'lib, unda mijozlarga nomerlar berilishi, shuningdek mehmonxona mahsulidan shinam, qulay va xavfsiz foydalanishga yo'naltirilgan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilishi kafolatlanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlari ancha jo'shqin rivojlanmoqda. Bu mehmonxona servisida band bo'lgan tijoratchilarga katta imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekiston bilan chet elda mehmonxona ishini tashkil etishdagi keskin tafovutlar asta-sekin yo'qolib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining mehmonxona korxonalarini mijozlarga xizmat ko'rsatish saviyasini, nomerlarning shinamligi va qulayligi darajasini, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning malakasini izchil oshirib bormoqdalar. Shu o'rinda oilaviy mehmon uylari haqida gapirib o'tish joiz hisoblanadi. Oilaviy mehmon uyi – mazkur mehmon uyida uy egasining oila a'zolari bilan birga yashash tamoyili bo'yicha bir vaqtning o'zida 10 nafargacha tashrif buyuruvchilarga vaqtincha yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi xususiy uy-joydir. Barcha boshqa joylashtirish vositalari kabi oilaviy mehmon uylari ham turizm sohasini jadal rivojlanishiga katta turtki bermoqda.

Oilaviy mehmon uylarining o'ziga xos jihatlaridan biri bu kamharjligidadir ya'ni bu mehmon uylari nafaqat milliylikni ko'rsatib beradi balki harajatni xam kamaytirishga imkon beradi.

Oilaviy mehmon uylari xar bir davlatning o'ziga xosligini aks ettirib turuvchi joylashtirish vositasi hisoblanadi. Yuqorida keltirib o'tilgan xorij oilaviy mehmon uylari buni yaqqol ko'rsatib turibdi. Ya'ni oilaviy mehmon uylarida o'tgan asrning o'tgan yillari, tarixni va albatta an'analarni ko'rishimiz mumkin.

## **II-BOB. SAMARQAND VILOYATIDA MEHMON UYLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **2.1. O'zbekistonda oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari**

O'zbekistonda turizm faoliyatini rivojlantirish to'g'risida bir qancha qator qaror va farmon va farmoyishlar qabul qilinganidan hammamizning xabarimiz bor. Misol tariqasida bir qanchasini keltirib o'taman.

Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko'ra quyidagilar keltirib o'tilgan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Farmonda yoshlarni turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish bo'yicha axborot-targ'ibot tadbirlarining muntazam o'tkazilishini ta'minlanishi haqida; turistlar oqimining mavsumiyligi hamda hududlarning turizm infratuzilmasi to'liq jalb etilishini inobatga olib, shu jumladan turizm faoliyati subyektlarini jalb etgan holda Amaliy chora-tadbirlar rejasining samarali amalga oshirilishi uchun zarur choralar ko'rilishi kerakligi haqida aytilgan. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan joylashtiriladigan tashqi reklama ijtimoiy reklamaga tenglashtirilishi haqida; Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi

Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan kelishilgan holda 2018-2020-yillarda respublikaning har bir hududida kamida 100 ta joy hisobga olinib markaziy ko‘chalar, aholi gavjum joylar hamda trassalarda joylashgan shitlar, ekranlarda ichki turizmga oid tashqi reklama beg‘araz o‘rnatilishini ta‘minlanishi haqida ta‘kidlangan.

Dastur doirasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga turistik-ekskursiya turlari uchun to‘lovlar bilan bog‘liq xarajatlar to‘g‘risida belgilab qo‘yilgan; ta‘lim muassasalari o‘quvchilari uchun – o‘z mablag‘lari va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi mablag‘lari hisobidan; tashkilotlar xodimlari uchun – o‘z mablag‘lari, ish beruvchi mablag‘lari (byudjet tashkilotlari uchun – tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag‘lari) va jamoaviy shartnomalarga muvofiq boshqa mablag‘lar hisobidan; yetim bolalar, kam ta‘minlangan oilalar farzandlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ularning umumiy sonidan kamida 20 foizi qamrab olinishi ta‘minlangan holda – xayriya mablag‘lari, shuningdek, har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ko‘rsatkichlarida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan; pensionerlar hamda urush va mehnat faxriylari uchun – o‘z mablag‘lari, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash «Nuroni» jamg‘armasining mablag‘lari va xayriya mablag‘lari hisobidan; faol xotin-qizlar uchun – o‘z mablag‘lari, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi mablag‘lari, «Mahalla» xayriya jamoat fondi mablag‘lari va xayriya mablag‘lari hisobidan; mahalla faollari va yosh oilalar uchun – o‘z mablag‘lari, «Mahalla» xayriya jamoat fondi mablag‘lari hisobidan tenglik asosida qoplanadi deb ta‘kidlangan.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga quyidagilar belgilangan: jamoaviy shartnomalarga rag‘batlantirish chorasi sifatida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga o‘z xodimlarining kamida 10 foizini oila a‘zolari bilan birgalikda har yili dam olishga (ichki turizmga) yuborishni nazarda tutadigan xodimlarning jamoaviy va oilaviy dam olishini tashkil qilish normasini kiritish haqida va xodimlarga mehnat qonunchiligiga muvofiq ular uchun qulay bo‘lgan vaqtda sayohat qilish va dam



olish uchun ta'tilning foydalanilmay qolgan qismi hisobidan dam olish kunlari (otgul) berish chora-tadbirlari ham ko'zda tutilganligi haqida aytib o'tilgan.

Dastur tadbirlarini amalga oshirish doirasida har yili 30-dekabrgacha davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlari uchun turistik-sayohat turlarini tashkil qilish jadvallarini tasdiqlash tavsiya etilsin deb aytib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi davlat organlari va boshqa tashkilotlarga guruhli sayohatlarni tashkil qilish uchun mahalliy turoperatorlar bilan o'zaro hamkorlik qilish, shuningdek, mehmonxona va transport tashkilotlariga tashkil etilgan turlar, shu jumladan yashash va kelib-ketish (uchib borish) uchun imtiyozlar taqdim etish bo'yicha takliflar yuborishda yordam ko'rsatilishi haqida aytilgan;

2018-yil 10-fevraldan boshlab 3 yil muddatga quyidagi tartib joriy etilishi kiritilgan ya'ni, ish beruvchining turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan subyektlardan xodimlar va ularning oila a'zolari uchun respublika bo'ylab turistik yo'llanmalarni sotib olish xarajatlari xodimning daromadi sifatida ko'rib chiqilmaydi hamda yuridik shaxsdan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqishda chegirib qolinishi lozimligi va jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlari O'zbekiston Respublikasi bo'ylab turistik yo'llanmalarni turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan subyektlardan sotib olishga yo'naltirilgan xarajatlar summasiga kamaytiriladi. Bunda turistik yo'llanma (ayirboshlanadigan vaucher), avia va temir yo'l chiptalari, avtotransport tashkilotlarining hisob-fakturalari (chiptalari) va joylashtirish vositalari cheklari tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi.

Turizm sohasida faoliyat ko'rsatadigan subyektlarning soliq solinadigan bazasi O'zbekiston turizm brendi va "Uzbekistan.travel" sayti reklamasi bo'lgan bosma mahsulotlarni (xaritalar, risolalar, bukletlar, flayyerlar va boshqalar), suvenir va qadoqlash mahsulotlarini (sumkalar, paketlar, maktab daftarlari, yorliqlar, g'iloqlar, kiyim-kechaklardagi va oshxona anjomlaridagi yozuvlar) tayyorlash va chop etishga yo'naltiriladigan xarajatlar summasiga kamaytiriladi.

Tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan subyektlardan O'zbekiston Respublikasi bo'ylab sayyohlik turlarini sotib olish uchun 10 million so'mgacha iste'mol kreditlarini ajratish va kreditni ish haqi hisobidan qoplash imkoniyatini berish tavsiya etilgan.

Turizm obyektlari (me'moriy yodgorliklar va boshqalar) hamda infratuzilmasi (mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari, turistik yo'nalishlar va boshqalar) joylashgan joylarning belgi-ishoralari va ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan tematik turistik xaritalar adadini ko'paytirish va ularni tarqatishga kartografiya ishlarini amalga oshirish uchun litsenziya (ruxsatnoma) olinishi talab etilmasligi haqida aytish mumkin.

Shu va shunga o'xshash qator farmon va farmoyishlar turizm sohasini rivojlantirishimiz uchun katta turtki bo'ldi. Misol tariqasida yana bir farmoyishni keltirib o'tmoqchi edim.

Mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida:

1. Quyidagilar o'rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo'lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish, yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy budjet daromadlarida turizmning ulushini ko'paytirish, ish bilan bandlikni ta'minlash,

aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

turizm industriyasi subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, turizmning rivojlanishidagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirish, turizm sohasida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish va turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish;

turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, ovqatlanish punktlarida, respublika hududi bo'ylab harakatlanishda, turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini — ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm obyektlari bo'yicha yagona milliy reyestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

turizm faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni, birinchi navbatda, BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (YuNVTO), xorijiy mamlakatlarning turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlari — turizm xizmatlari mintaqaviy va jahon

bozorlarining faol ishtirokchilari bilan hamkorlikni kengaytirish, O‘zbekistonning turizm sohasida tartibga soluvchi universal xalqaro konvensiyalar va bitimlardagi ishtiroki, turizm faoliyati amaliyotiga xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni joriy etish;

respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan turizm industriyasi obyektlarini — mehmonxonalarini va joylashtirishning shu kabi vositalarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo‘lbo‘yi infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investorlarni keng jalb etish;

xalqaro turizm rivojlanishi tendensiyalarini va zamonaviy marketing vositalari qo‘llanilishini hisobga olgan holda, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish, ularni ichki va xalqaro turizm bozorlarida targ‘ibot qilish bo‘yicha strategiyani ishlab chiqish, qulay turizm axborot muhitini tashkil etish va rivojlantirish, keng reklama-axborot faoliyatini amalga oshirish, mamlakat hududlarida turizm axborot markazlari va chet elda turizm vakolatxonalarini ochish, Internet tarmog‘idan faol foydalanish, har yili Toshkent xalqaro turizm yarmarkasini o‘tkazish yo‘li bilan turizm sohasida mamlakatimizning ijobiy qiyofasini shakllantirish;

turizm tarmog‘i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Tugatilgan “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi turizm sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016 yilning 2-dekabrda Farmonida belgilangan vazifalardan

biri – turizmning yangi yo‘nalishlarini rivojlantirish maqsadida hamda mahalliy va xorijiy sayyohlar, oilaviy turistlar vaqtini chog‘ o‘tkazishi uchun tadbirlar soni va sifatini oshirish uchun yurtimizning barcha viloyatlarida katta madaniy va sport tadbirlari, festivallar o‘tkazib kelinmoqda.

Bu festivallarga Surxondaryodagi “Boysun bahori” va Kurash bo‘yicha xalqaro turnir, Buxoro “Ipak va ziravorlar” festivali, sport o‘yinlari va boshqa tadbirlarni keltirib o‘tish mumkin. Ushbu tadbirlar qatorida Namanganda uzoq yillardan beri davom etayotgan “Gullar Festivali” xalqaro, mahalliy hamda oilaviy turistlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Mazkur tadbirga xorij mamlakatlaridan kelgan sayyohlar juda katta qiziqish bildirib kelmoqdalar. Sayyohlar “Gullar Festivali” sabab bo‘lib viloyatning diqqatga sazovor joylari, obidalari va ekoturizm maskanlari, mahalliy oshxona bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Festival har yili may oyida o‘tkaziladi va ko‘plab mahalliy aholi oilalari bilan gullarni tomosha qilishga chiqishadi. Shunday tadbirlar orqali o‘tib kelayotgan yosh avlod tabiatga mehr berib, uni qadrlab o‘sadi. Go‘zallik ko‘ngildagi g‘araz niyatlarni tozalaydi va oilalarning hamjihatlashuviga zamin yaratadi.

Nafaqat O‘zbekiston balki boshqa chet davlatlar ham O‘zbekistonda oilaviy turizm va boshqa turizm turlarini rivojlantirishga yordam bermoqdalar. Bunga misol qilib Rossiyaning "HTB" telekanali ijodiy guruhi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi ko‘magida oilaviy sayyohat haqida **“Пора в отпуск”** dasturini yangi qismini sur`atga olishganligini aytish mumkin.

Ushbu teleko'rsatuv orqali Rossiyadagi tomoshabinlar mamlakatimizning boy va rang-barang turizm salohiyatini, turistik xizmatlarini tasavvur etish imkoniyatiga ega va o‘zlari va oilalarini ushbu joylarga olib kelishlari mumkin bo‘ldi.

Bulardan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish

bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida"<sup>3</sup> gi farmonining joriy qilinishi ham oilaviy turizmni rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi:

- 2018 yil 10 fevraldan boshlab Isroil davlati, Indoneziya Respublikasi, Koreya Respublikasi, Malayziya, Singapur Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Yaponiya fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasiga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshiruvchi xorijiy aviakompaniyalar havo kemalari ekipajining a'zolari uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim belgilanishi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi Tashqi ishlar vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Moliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2018 yil 1 iyuldan boshlab elektron kirish vizalarini berish tizimi ishga tushirilishini ta'minlanishi ko'zda tutilishi;

-O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan:

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston «Mahalla» xayriya jamoat fondi hamda O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash «Nuroniylar» jamg'armasining quyidagi aholi qatlamlari uchun respublika hududlari bo'ylab turizm-ekskursiya turlari tashkil etilishini ko'zda tutuvchi «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturini (keyingi o'rinlarda — Dastur) amalga oshirish to'g'risidagi taklifi ma'qullanishi:

---

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida" gi farmoni Toshkent sh. 2018 yil 3 fevral PF-5326-son

*ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun* — ta'til davri va dam olish kunlarida;

*tashkilotlar xodimlari uchun* — dam olish kunlarida, umummilliy bayramlar va ta'til kunlarida, ayniqsa turizm mavsumi sust davrda;

*aholining ijtimoiy zaif qatlamlari, pensionerlar, urush va mehnat faxriylari uchun* — sanatoriy-kurortlarda dam olishdan faol foydalangan holda yil davomida;

*keksalar, yosh oilalar, fuqarolar yig'inlari faollari, xotin-qizlar va boshqa jamoat birlashmalari vakillari uchun* — turizm mavsumi sust davrida.

- 2018 yilning 1 yanvaridan e'tiboran turizm mahsulotlarini sotish va turizm xizmatlarini onlayn bron qilish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliqqa solinadigan bazasi elektron xizmatlarni, jumladan, elektron to'lovlar, bron qilish, ekvayring va boshqa xizmatlarni, shuningdek, turizm xizmatlarining zamonaviy turlarini taklif qiluvchi ixtisoslashtirilgan internet-saytlar va portallarni yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan xarajatlar miqdoriga kamaytirilishi;

- Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining mehmonxonalarini, tutash yo'l, muhandislik va kommunikatsiya infratuzilmalarini qurish bo'yicha investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining 200 mln. AQSH dollari miqdoridagi kredit liniyasini ochish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilishi;

- O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «Dunyo bo'ylab» telekanali O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining ichki turizm, oilaviy turizm, dam olishning faol turlari va sport turizmini rivojlantirish, madaniy meros ob'ektlari va tabiiy boyliklar, shu jumladan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni saqlash va ulardan foydalanish bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni yoritish masalalari bo'yicha bosh axborot hamkori sifatida belgilanishi.

2018 yil 10 fevraldan boshlab fuqarolari uchun turizm vizalarini rasmiylashtirishning soddalashtirilgan tartibi joriy qilinadigan mamlakatlar etib belgilandi:

Avstraliya Ittifoqi, Albaniya Respublikasi, Andorra Knyazligi, Bolgariya Respublikasi, Bosniya va Gertsegovina, Vatikan, Vengriya, Gretsiya Respublikasi, Daniya Qirolligi, Hindiston Respublikasi, Irlandiya, Islandiya, Quvayt Davlati, Kanada, Litva Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasining Gonkong maxsus ma'muriy hududi bilan birga, Lixtenshteyn Knyazligi, Lyuksemburg Buyuk Gertsogligi, Makedoniya Respublikasi, Malta Respublikasi, Monako Knyazligi, Niderlandiya Qirolligi, Yangi Zelandiya, Norvegiya Qirolligi, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon Sultonligi, Portugaliya Respublikasi, Ruminiya, San-Marino Respublikasi, Saudiya Arabistoni Qirolligi, Serbiya Respublikasi, Slovakiya Respublikasi, Sloveniya Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Finlyandiya Respublikasi, Xorvatiya Respublikasi, Chernogoriya, Shvetsiya Qirolligi, Estoniya Respublikasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3509-sonli qarori<sup>4</sup> dagi quyidagi bandlar :

- O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va «O'zbekiston havo yo'llari» MAK O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini O'zbekistonning turizm imkoniyatlarini namoyish etadigan zarur axborot materiallari bilan ta'minlanishi, shuningdek, zarurat bo'lganda, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalariga joylashgan mamlakatida «O'zbekiston» turizm brendini targ'ib qilishga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazish uchun byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan mablag'lar ajratilishi;

- «O'zbekiston havo yo'llari» MAKga qatnovlar raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida xalqaro qatnovlar uchun aviachiptalarni tannarxidan past narxlarda sotish huquqi berilishi;

---

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3509-sonli qarori



- O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi 2018 yil 1 martda turistlarga tezkor yordam ko'rsatish uchun yagona qisqa umumrespublika telefon raqamiga ega bo'lgan Call-markazning faoliyati autsorsing shartlarida tashkil etilishini ta'minlanishi;

- O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Sog'liqni saqlash vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Call-markazga murojaat qilgan turistlarga tezkor yordam ko'rsatish masalalarida idora

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3509-sonli qarori va boshqa ko'plab turizm sohasiga oid qator farmon, qarorlarning chiqarilishi bu turizm sohasining jadal rivojlanishiga katta turtki bermoqda.

## **2.2. Samarqand viloyatida oilaviy mehmon uylarini tashkil etishning tashkiliy masalalari**

Urf-odatlarimiz, madaniyatimiz, xalqimizning mehmondo'stligi, shuningdek, boy madaniy merosga egaligimiz tufayli Samarqandga sayyohlarning tashriflari ortmoqda.

Shuni hisobga olgan holda viloyatimiz hududi bo'ylab, barcha qulayliklar, shart-sharoitlarga ega bo'lgan oilaviy mehmon uylari tashkil etilmoqda.

2019-yilning 14 yanvar kuni Samarqand shahri I.Buxoriy va Buxoro ko'chalarida 2 ta oilaviy mehmon uyi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bular "SHERHAN

HOUSE” va “HOSTEL LIKE” mehmon uylaridir. 2019 yilning 14 yanvar Samarqand viloyatida 204 o‘rinli 23 ta mehmon uylari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, 2019 yilning birinchi choragida 135 o‘rinli 15 ta mehmon uyi ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Oilaviy mehmon uylarida nechta sayyohga xizmat ko‘rsatiladi?

Mamlakatimizda turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun yaratilayotgan keng imkoniyat va imtiyozlar joylarda ko‘plab zamonaviy obyektlar barpo etilishiga xizmat qilayotir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-avgustdagi “Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim dasturilamal bo‘lmoqda. Ushbu hujjatga muvofiq, joylarda oilaviy mehmon uylari tashkil etilgan. Ularda 10 nafargacha sayyohga yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatiladi. Tasdiqlangan Nizomga muvofiq, tijorat banklari oilaviy mehmon uylari tashkil etishni ixtiyor qilgan xususiy tadbirkorlarga eng kam oylik ish haqining 300 barobarigacha miqdordabesh yil muddatga, jumladan, 2 yillik imtiyozli davr bilankredit ajratishi mumkin. Shuningdek, bunday uylar ushbu Nizomda belgilangan talablar asosida zarur jihoz va uskunalar bilan ta‘minlanishi, moddiy-texnik bazasi yaratilishi, zarur vaqtda tashrif buyuruvchilarga tibbiy va boshqa xizmat ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lishi lozim deb aytib o‘tilgan.

Uy egalari mehmonlarning xavfsizligi uchun ham mas‘uldir. Eng muhimi, “Oilaviy mehmon uyi” o‘zbek tilidan tashqari, rus va ingliz tillarida yozilishi sayyohlar uchun qo‘shimcha qulaylik olib kelayapti.

– Sayyohlar e‘tiborini ko‘proq tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, zamonaviy obyektlar tortmoqda, – deydi O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i Z.O‘roqov. – Ularga talab darajasida xizmat ko‘rsatish, sayohatlar uyushtirish, dam olishini namunali tashkil etish maqsadida 2018-2019 yillarda 150 ga yaqin loyihani amalga oshirish mo‘ljallangan. Bu qariyb 300 yangi ish o‘rni yaratish imkonini beradi.

Nurota tumanida ham bunday loyihalarni tizimli ravishda amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Chashma majmuasi atrofini yanada ko'rkamlashtirish maqsadida hududga yaqin xonadonlarning ma'lum qismi boshqa joyga ko'chirilmoqda. Tig'iz va biroz betartib uylar o'rnida 2 va 3 qavatli zamonaviy turar joy binolari qad rostlayotir. Ko'p qavatli uylarning birinchi qavatida hunarmandlik rastalari va savdo do'konlari joylashadi. Masalan, 3 qavatli uyning yuqori qismida uy-mehmonxona tashkil etilishi xorijiy sayyohlarning o'zbek oilasi turmushi, xususan, Nurota madaniyati bilan yanada yaqindan tanishishi, milliy taomlarning tayyorlanish jarayonini o'z ko'zi bilan kuzatishiga keng imkoniyat beradi.

Tumanning Sentob qishlog'ida yashovchi tadbirkor Shodiboy Boboyev 2010-yilda hududda turizmni rivojlantirish maqsadida "Sentob-Shaxi-Mustafo" xususiy korxonasi faoliyatini yo'lga qo'ygan. Zamon talablariga to'la javob beradigan mehmon uylari, milliy qadriyatlarimizni o'zida mujassam etgan "Sentobsoy" dam olish maskanini tashkil etdi. Bir kunda 40 nafargacha mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega ushbu so'lim go'shada 5 kishi doimiy ish bilan ta'minlangan. Darhaqiqat, Sentobning dovrug'i dunyoga taralgan. "Balandi Umar" hududidagi qoyatoshlarga ishlangan V-VI asrlarga oid bitik va petrogliflar, tog' tepasida joylashgan ko'hna qo'rg'on qoldiqlari, XI-XVIII asrlarga oid toshga o'yilgan yozuvlar, qishloqning eng yuqori nuqtasidagi Fozilmon ko'li manzaralari kishini lol qoldiradi. Qishloq o'rtasida joylashgan "Akko" bulog'ining shifobaxsh suvi esa ko'plab kasalliklarga davo.

– Mavsum davomida qishlog'imizga Fransiya, Belgiya, Germaniya kabi mamlakatlar-dan 60-70 nafargacha mehmon keladi, – deydi tadbirkor Sh.Boboyev.

– Toza havo, minerallarga boy zilol suv sayyohlarni doimo o'ziga tortib kelgan. Xorijlik mehmonlarning ko'pchiligi mazmunli hordiq uchun har yili shu man-zilni tanlayotganligi tufayli ularning ayrimlari bilan tanish bo'lib qolganmiz. Ular O'zbekistonga yo'li tushsa, albatta, bu yerga kelishga harakat qiladi. Biroq, yurtdoshlarimiz bu betakror maskan haqida haligacha to'la xabardor emas.

Shuning uchun mahallamizning so‘lim go‘shalarini mahalliy va xorijlik mehmonlarga keng targ‘ibot qilishga alohida e‘tibor qaratmoqdamiz. Muxtasar aytganda, yuqorida zikr etilgan qaror ijrosi viloyatda turizmni yangi bosqichga ko‘tarish bilan birga, aholi bandliginida‘minlash, turmush farovonligini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Toshkent viloyatida 2018 yilda 40 ta oilaviy mehmon uylari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.



**8-rasm. Oilaviy mehmon uyining hovli ko‘rinishi**

Toshkent viloyatida 2019 yilda mehmon uylari sonini 300 taga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Toshkent viloyatida 2018 yilda 40 ta oilaviy mehmon uylari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, joriy yilda ular sonini 300 taga yetkazish rejalashtirilmoqda. O‘zbekistonda turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub‘ektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun taqdim etilayotgan imkoniyat va imtiyozlar turizm infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qilayotir. Jumladan, sohada bir qadar yangi yo‘nalish — oilaviy mehmon uylari tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlashga qaratilayotgan e‘tibor tufayli turizmning mazkur yo‘nalishi jadal rivojlanmoqda. O‘tgan yili birgina Bo‘stonliq tumanida 20 ta oilaviy mehmon uyi faoliyati yo‘lga qo‘yilgani fikrimiz tasdig‘idir.

Oilaviy mehmon uylari sayyohlar, ayniqsa, chet ellik sayyohlar e‘tiborini ko‘proq tortishi, nisbatan kamxarjligi va boshqa shu kabi qulayliklari bilan ajralib turadi. Milliy urf-odat va qadriyatlarimizni keng targ‘ib qilish, qishloq joylarda

tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va, asosiysi, turizmni jadal taraqqiy ettirishda muhim o'rni tutadi.<sup>5</sup>

Ayni paytda viloyatda sohani rivojlantirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, oilaviy mehmon uylari va qishloqqa kelgan mehmonlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lami kengaytirilib, hududlardagi ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar, tabiatning so'lim go'shalariga mehmonlar sayrlari uyushtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi «Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlar rivojida yana bir muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, mazkur qarorda har yili xostellar va mehmon uylarini tashkil qilish dasturini tasdiqlash, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi bilan birgalikda shaharlar va aholi punktlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda respublikaning har bir yirik shahrida xostellar va mehmon uylari tarmog'ining mavjud bo'lishini ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilandi. Shuningdek, zamonaviy sanitar-gigiyenik shoxobchalarni qurish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Bu borada Toshkent viloyatining barcha tuman va shaharlari, ayniqsa, turistlar ko'p tashrif buyuradigan hududlardagi turistik ob'ektlarning sanitariya-gigiyenik shoxobchalari holati o'rganildi.

O'rganish jarayonida hududlar bosqichma-bosqich xatlovdan o'tkazilib, hokimliklar va mutasaddi tashkilotlarga mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taqdimnoma kiritildi. Natijada 60 dan ortiq madaniy meros obidasi, ziyoratgoh va qadamjo obodonlashtirildi. Jumladan, Ohangaron tumanidagi «Shoabdumalik ota» ziyoratgohi, Piskent tumanidagi «Parpi ota» ziyoratgohida zamonaviy sanitariya-gigiyenik shoxobchalar qurilib, barcha zarur sharoit yaratildi. Yana 9 ob'ektni ta'mirlash va konservatsiya qilish uchun 3 milliard so'm ajratildi.

---

<sup>5</sup> <https://uzbektourism.uz>newnews>view>.



**9-rasm. Mehmon uyining tashqi ko'rinishi.**

Mamlakatimizda turizm industriyasini rivojlantirish, sohada xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida targ'ib etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2017-yil 16-avgustdagi "2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilayotir.<sup>6</sup>

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari tufayli Sohibqiron Amir Temur voyaga yetgan, ko'plab tarixiy yodgorliklarni jamlagan ko'hna Shahrissabz sayyohlarning sevimli maskaniga aylanmoqda. Birgina o'tgan yilda 10 mingdan ziyod sayyoh qadim Keshni ziyorat qilgani fikrimiz dalilidir. Ayni paytda shaharda tarixiy obidalarni qayta ta'mirlash, obodonlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mehmonxona biznesini yo'lga qo'yimoqchi bo'lgan tadbirkorlar qo'llab-quvvatlanmoqda. Zamonaviy otellar barpo etilishi bilan birga, noan'anaviy uslubda ish olib boruvchi uy-mehmonxonalar ham tashkil etilayotir. Bunday mehmonxonalarning o'ziga xosligi shundaki, ular turistlarga hudud aholisi

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha PQ-3217 qarori.

turmushi, urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish, bir muddat o'zini ko'ha davrda yashagandek his etish imkonini beradi.

– Hozir yashab turgan uyimiz qurilganiga 200-yildan oshgan, – deydi Shahrizabz shahrining Qoziguzar mahallasida yashovchi Rashid Haydarov. – Shuncha vaqt davomida u o'z tarovatini aslo yo'qotmagan. Me'morchiligi ham o'sha davrga xos. Devorlari sinchkori usulda bunyod qilingani bois qishda issiq, yozda salqin bo'ladi. Har bir xona ichida bir necha tokcha qilingan. Ulardan narsa-buyum qo'yishda foydalanilgan. Hovlida saksovul olovida pishirilgan g'ishtlar yotqizilgan. Shunchalik pishiqki, sindirish mushkul. Bu g'ishtlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, undan zax o'tmaydi. Haroratni o'zida yaxshi saqlaydi. Yoz oylarida ustida yalangoyoq yurilsa, oyoq bilan bog'liq ko'p kasalliklarga davo bo'ladi.

Xullas, uyimizdagi har bir narsaning uzoq tarixi bor. O'ylab-o'ylab, uying bir qismini mehmonxonaga moslashtirishga ahd qildik. Zamon talablari asosida jihozladik. Albatta, ayrim zarur o'zgartirishlar ham kiritdik. Barcha qulayliklarga ega yuvinish xonasi, kanalizatsiya tizimi qurdik. Uying tashqi va ichki qismlari asl holatini yo'qotmagan holda milliy unsurlar bilan boyitildi. So'zanalar bilan bezaldi, misdan yasalgan ko'za, oftoba va laganlar, sopol xumdon, yog'och lavh ko'z tushadigan joyga qo'yildi. Bular xorijiy sayyohlarni befarq qoldirmaydi, albatta.



**10- rasm. Oilaviy mehmon uylarining bo'g qismining ko'rinishi**

Uyning eshigi uydanda qadimiy. Xalq tilida “bag‘dodi eshik” deb yuritiladigan bunday qadimiy eshiklar Sohibqiron Amir Temur davrida Bag‘doddan kelgan taniqli ustalar tomonidan yasalgan va o‘zining bejirim naqshlariyu mustahkamligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur uy-mehmonxonada ajoyib muhit yaratilgani bir qarashdayoq seziladi.

Kiraverishda reception – qabulxona sizni qarshi oladi. Bu yerda mehmonlar ro‘yxatdan o‘tkaziladi va xonalarga joylashtiriladi. Har bir xona orom olishga mo‘ljallangan bo‘lib, alohida-alohida yotoq karavoti o‘rnatilgan. Mehmonxona bir yo‘la 9 nafar turistni qabul qila oladi.

Hovlining kunchiqar tarafiga yog‘och so‘ri o‘rnatilgan. Usti qamish bo‘yra bilan yopilgan. So‘ri o‘rtasidagi xontaxta atrofida milliy uslubda tayyorlangan ko‘rpacha va yostiqlar qo‘yilgan. Havo ochiq kunlarda mehmonlar uning ustida suhbat qurishi, tanovul qilishi mumkin.

Sayyohlar nafaqat milliy taomlarimizdan tatib ko‘rish, balki ularni tayyorlashda bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ham ega. Buning uchun maxsus tandir va o‘choqlar qilinib, zarur sharoitlar yaratilgan.

Uy-mehmonxonamizda sayyohlar ko‘ngildagidek dam olish bilan birga, milliy madaniyatimizni ham yaxshi o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi, – deydi xonadon sohibasi Musharrafa Qambarova. – Masalan, mehmonlarga yoshlar ittifoqining tuman kengashidagi iste‘dodli yigit-qizlar bilan hamkorlikda to‘y va kelin salom kabi milliy marosimlarimizni sahnalashtirilgan holda namoyish etishni rejalashtirganmiz. Bu jarayonni mehmonlar nafaqat tomosha qilishi, balki bevosita ishtirok etishi ham mumkin.

Shahrisabz shahrida bunday ko‘hna uylar juda ko‘p, ularni chet ellik mehmonlar uchun qo‘nimgohga aylantirish bo‘yicha sa‘y-harakatlar davom ettirilmoqda. Bu ishlar aholi daromadini oshirish barobarida, kelgusida hududning turizm salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda 2018-yilning sentabr oyida turistlar uchun jami 255 o‘rinli 11 ta yangi joylashish muassasasi ishga tushgan





### **11-rasm. Mehmon uyining qabul bo'limi.**

Xususan, Toshkent shahrida uchta xostel va bitta mehmonxona faoliyat boshlagan. Toshkent viloyatida esa turistlar maxsus uy mehmonxonalari yaratilgan.

Samarqand viloyatida jami 34 o'rinli mehmonxona va xostel tashkil etilgan. Buxoro viloyatida esa olti xonadan iborat yana bir xostel bor.

Jizzax viloyatida eng katta – 28 xonadan iborat 52 o'rinli “Karavan” mehmonxonasi ham ishga tushirilgan.

2018-yil 7- avgustdagi qarorga muvofiq, sayni paytga qadar Toshkent viloyatida 50ga yaqin oilaviy mehmon uyi faoliyati yo'lga qo'yildi. Joriy yilda bunday uylar sonini 300 taga yetkazish rejaga kiritilgan hisoblanadi.

Viloyatga 2018-yilda 3million 500 mingdan ziyod sayyoh, jumladan, 550 ming nafardan ortiq chet ellik sayyoh tashrif buyurgan. Bu esa o'tgan yillarga nisbatan bir necha barobar ko'p. E'tiborli jihati, oilaviy mehmon uylari, ayniqsa, xorijlik sayyohlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu o'z navbatida, turizmning bu yo'nalishini jadal rivojlantirishni taqozo etayapti.


Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, jumladan hududlarda ishga solinmagan qulay va tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yuksak samara bermoqda. Turizm infratuzilmasini kengaytirish, sayyohlarning maroqli hordiq chiqarishi uchun munosib sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oilaviy mehmon uylari kamxarjligi bilan boshqa mehmonxona turlaridan farq qiladi, va mehmonlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirilib, hududlardagi ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar, so'lim tabiat g'shalariga sayrlar uyushtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-avgustdagi "Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 631-sonli qaror ijrosi doirasida Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan joriy yilning I chorak davomida "Oilaviy mehmon uylari yagona reyestri"ga 71 ta Oilaviy mehmon uylari kiritilib, umumiy hisobda Oilaviy mehmon uylari soni 179 taga yetib, ulardagi joylar soni 1589 tani tashkil etadi.<sup>7</sup>

Oilaviy mehmon uylari soni hududlar kesimida olinganda Samarqand viloyatida 34, Qashqadaryo viloyatida 24, Toshkent viloyatida 22, Surxondaryo viloyatida 20, Buxoro viloyatida 19, Toshkent shahrida 18, Xorazm viloyatida 13, Jizzax viloyatida 10, Navoiy viloyatida 7, Qoraqalpog'iston Respublikasida 6, Farg'ona viloyatida 3, Andijon viloyatida 2, Sirdaryo viloyatida 1 tani tashkil etmoqda.

Birinchi chorak yakunlariga ko'ra, Oilaviy mehmon uylari o'zida 1966 nafar mahalliy va 2882 nafar xorijiy, umumiy hisobda 4848 nafar sayyohni qabul qilgan.



<sup>7</sup> Lex.uz on-line. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 631-son qarori.

## **1-diagramma. Oilaviy mehmon uylarining hududlarda soni**

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, jumladan hududlarda ishga solinmagan qulay va tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yuksak samara bermoqda. Turizm infratuzilmasini kengaytirish, sayyohlarning maroqli hordiq chiqarishi uchun munosib sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Urf-odatlarimiz, madaniyatimiz, xalqimizning mehmondo'stligi, shuningdek, boy madaniy merosga egaligimiz tufayli Samarqandga sayyohlarning tashriflari ortmoqda.

Shuni hisobga olgan holda viloyatimiz hududi bo'ylab, barcha qulayliklar, shart-sharoitlarga ega bo'lgan oilaviy mehmon uylari tashkil etilmoqda.

### **2.3. Samarqand shahrining “Eski shahar” qismida tashkil etilgan oilaviy mehmon uylarining o'ziga xos xususiyatlari**

Samarqand shahri Turizm sohasi jadal sur'atlarda rivojlanayotgan shaharlardan biri hisoblanadi. Bunga yaqqol quyidagi mehmon uylarini kiritib o'tishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Furqat” mehmon uyi. Bu mehmon uyi Samarqand shahrining “Eski shahar” qismida joylashgan hisoblanadi. Bu mehmon uyi juda qulay va o'zbekchiligimizga xos bo'lgan barcha madaniyat, urf-odatlarimiz yaqqol ko'zga tashlanadigan uy hisoblanadi. Bu mehmon uyi 27 ta nomerni o'z ichiga oladi. Bu uyda turistlar o'zlarini Samarqand shahrining tarixiga tushib qolgandek his qiladilar. Yoz oylarida tashqi hovli tarafda topchan mavjud qaysiki kechki paytlarda choy ichib dam olish mumkin hisoblanadi.

“Furqat” mehmon uyi ikki qismdan iborat. Birinchi qismi ikki etajdan, ikkinchi qismi uch etajdan iborat. Mehmon uyining interyeri sharqona muhitdan darak berib turadi. Uchinchi etajdan esa bermalol Samarqand shahrining boyliklari

hisoblangan Registon, Bibi-Xonim, Shohi-Zinda va Al-Motrudiy kabi maqbaralarni yuqoridan tomosh qilish mumkin. Registon maydoniga piyoda bir necha daqiqalarda boorish mumkin.



**12-rasm. Furqat mehmon uyining nomerlar ko'rinishi.**

Keyingi mehmon uylarimizdan biri bu “ Bahodir B&B” hisoblanadi. Bu mehmon uyi Registon maydonidan 300 metr uzoqlikda joylashgan. Bu mehmon uyi 16 nomerdan tashkil topgan, har bir nomer o'z ichiga quyidagilarni oladi: kiyim iladigan shkaf, ish stoli, shahsiy yuvinish xonasi va albatta yotoq joyi.

Har bir nomerning orqa eshigidan bog' ko'rinib turadi, bu orqa tomonda ish stoli va ventilyator xam mavjud. Bu mehmon uyining mehmonlariga yana quyidagi xizmatlar hamko'rsatiladi: 24 soatlik reseption xizmati, taksi xizmati, mashinalar uchun parkovka xizmati va chekish uchun alohida joy kabi xizmatlar mavjud.

Tashqi hovli tomonida esa wifi, bog' va umumiy oshxona ham mavjud.



**13-rasm. Bahodir B&B mehmon uyining tashqi hovli ko'rinishi**



**14-rasm. Bahodir B&B mehmon uyining tashqi hovli ko'rinishi**

Samarqand shahridagi yana bir mo'jazzgina mehmon uylaridan biri bu "Like" mehmon uyi hisoblanadi.

Bu mehmon uyi Samarqand markaziga yaqinroq joylashgan, bu mehmon uyi orqali biz nafaqat shaharning eski qismini balki yangi qurilayotgan maskanlarni ham tomosh qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Bu mehmon uyi barcha mehmonlarga quyidagi xizmatlarni ko'rsatishga 24 soat tayyor hisoblanadi: parkovka xizmati, internet xizmati, sport turlaridan stol tennisini ham o'ynash Imkoniyati mavjud, taom va ichimliklar yetkazib berish xizmati, taksi xizmati va animatsion xizmatlarni va boshqa ko'plab boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatiga ega hisoblanadi.




**15-rasm. Like mehmon uyining ichki qabul qilish bo'limining ko'rinishi**



**16-rasm. Like mehmon uyining tashqi ko'rinishi.**

Samarqand shahrining yana bir ajoyib mehmon uylaridan biri bu “Gulsara” mehmon uyi Samarqand shahridagi eng qulay mehmon uylardan biri hisoblanadi. Har bir nomer o'z ichiga oshxona va umumiy yuvinish xonasidan va konditsionerdan iborat. Bu mehmon uyi o'z ichiga quyidagi xizmatlarni oladi: 24 soatlik qabul qilish xizmati, umumiy oshxona, har kuni ertalab continental nonushta kabi xizmatlarni taklif etadi. Bundan tashqari bu mehmon uyida kutubxona va yosh bolalar uchun o'yin maydonchasi va go'zallik saloni va kir yuvish dazmol qilish xizmatlari ham mavjud.



**17-rasm. Gulsara mehmon uyining ichki kutish zalining yuqoridan ko'rinishi.**



**18-rasm. Gulsara mehmon uyining vestibyl qismining ko'rinishi.**

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, Samarqand shahri Turizm sohasi jadal sur'atlarda rivojlanayotgan shaharlardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, viloyatimiz hududi bo'ylab, barcha qulayliklar, shart-sharoitlarga ega bo'lgan oilaviy mehmon uylari tashkil etilmoqda. 2019-yilning yanvar holatiga ko'ra, Samarqand viloyatida 204 o'rinli 23ta mehmon uylari faoliyat olib bormoqda. 2019-yilning choragida 135 o'rinli 15 ta mehmon uyi ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

		1-yulduzli
	3	2-yulduzli
		3-yulduzli
55	14	4-yulduzli
		5-yulduzli
		toifaga ega bo'lmagan
	6	
	1	

**2-diagramma. 2017-yilda mehmonxonlarning toifasi (yulduzlar) bo'yicha ulushi %.<sup>8</sup>**

## II-bob bo'yicha xulosalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3509-sonli qarori va boshqa ko'plab turizm sohasiga oid qator farmon, qarorlarning chiqarilishi bu turizm sohasining jadal rivojlanishiga katta turtki bermoqda.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, jumladan hududlarda ishga solinmagan qulay va tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish

<sup>8</sup> www.stat.uz.



borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yuksak samara bermoqda. Turizm infratuzilmasini kengaytirish, sayyohlarning maroqli hordiq chiqarishi uchun munosib sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Urf-odatlarimiz, madaniyatimiz, xalqimizning mehmondo'stligi, shuningdek, boy madaniy merosga egaligimiz tufayli Samarqandga sayyohlarning tashriflari ortmoqda.

Shuni hisobga olgan holda viloyatimiz hududi bo'ylab, barcha qulayliklar, shart-sharoitlarga ega bo'lgan oilaviy mehmon uylari tashkil etilmoqda. , Samarqand shahri Turizm sohasi jadal sur'atlarda rivojlanayotgan shaharlardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, viloyatimiz hududi bo'ylab, barcha qulayliklar, shart-sharoitlarga ega bo'lgan oilaviy mehmon uylari tashkil etilmoqda. 2019-yilning yanvar holatiga ko'ra, Samarqand viloyatida 204 o'rinli 23ta mehmon uylari faoliyat olib bormoqda. 2019-yilning choragida 135 o'rinli 15 ta mehmon uyi ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

### **III-BOB. SAMARQAND VILOYATIDA MEHMON UYLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

#### **3.1.Oilaviy mehmon uylarining milliy interyerini yaratish**

Ichki dizayn qanchalik darajada chiroyli va milliy ruhda bezatilgan bo'lsa, shunchalik sayyohlarning qiziqishini uyg'otadi.

Hozirgi zamon mehmonxonalarining me'morchilik yechimi juda rang-barang: bir qavatli motellardan 88 qavatli osmono'par binogacha, polineziyaliklarning turar joyi uslubida qurilgan kulbalardan hozirgi zamon me'morchiligining oynavand-beton majmualarigacha. Ayni paytda, zamirida iqtisodiy mulohazalar yotuvchi bir nechta asosiy texnik yechimlarni qayd etish mumkin. O'rtasida lift joylashgan to'g'ri to'rburchak bino eng sodda yechim hisoblanadi. Har bir qavatdagi lift maydonchalaridan binoning ikki tomoniga qarab uzun yo'lak ketgan, yo'lakning ikkala tomonida nomerlar joylashgan. Shahar markazida yer maydoni qimmat turgan holda mehmonxona binosi yuqoriga qarab minora shaklida yuksalib boradi, bunda yo'lak uzunligi qisqaradi. Ba'zan u halqa shaklida bo'lib, uning ichida lift shaxtasi joylashadi.

Eski mehmonxonalarining binolari ko'pincha ichki hovlilari «quduq» shaklida bo'lgan. Hovlida mehmonlarning ekipajlari turgan. Binoning bunday shaklida nomerlar bir qismining derazasi ichki hovliga qaragan. Bunday mehmonxonalarni keyinchalik rekonstruksiya qilish jarayonida ichki hovli ko'pincha shaffof tom bilan to'silgan va atrium hosil qilingan.

Kurort mehmonxonalarini binosi o'ziga xos xususiyatga ega. Bunda derazasi dengizga qaragan nomerlarga mumkin qadar ko'proq ega bo'lishga harakat qilinadi. Shu maqsadda, agar joy reliefi imkon bersa, mehmonxona binosi tog' yonbag'ri bo'ylab dengizga tushib boradigan katta «pillapoyalar» shaklida quriladi. Shunda barcha nomerlar derazasi dengizga qaraydi. Tekis qirg'oqlarda uch qirrali yulduz shaklidagi (rejada) binolar ayniqsa ko'p quriladi. Har bir qirra bo'ylab yo'lak o'tadi, yo'lakning ikki tomonida nomerlar joylashadi. Bunday yechimda nomerlarning uchdan ikki qismi dengizga qaraydi.

Shuningdek saroy me'morchiligi namunalarini, chunonchi, Yevropadagi ayrim hashamatli mehmonxonalarni ham qayd etish mumkin. Ular dastlab haqiqatda ham zodagonlarning saroyi bo'lgan va keyinchalik mehmonxonalarga aylantirilgan.

Motellar ham o'z xususiyatlariga ega. Ularning aksariyati ikki qavatli bo'ladi. Bu juda qulay, chunki qimmatga tushadigan liftlar qurish talab etilmaydi. Ammo binoning o'zi ancha katta maydonni egallaydiki, bu ayni holda ahamiyatsiz, chunki motellar odatda yer nisbatan arzon turadigan shahar tashqarisida joylashadi.

Mehmon uylari mehmonxona biznesining eng jozibali tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki chet ellik sayyohlarni ko'p yulduzli o'ta zamonaviy hamda hashamatli mehmonxonalardan ko'ra, milliy uslubdagi, o'zbekona tutumga ko'ra tashkil etilgan mehmon uylari ko'proq qiziqtirmoqda. Ular ana shunday maskanlarda hordiq chiqari, xalqimiz turmush tarzi, urf odatlari va an'analari bilan yaqindan tanishishni ma'qul ko'rishyapti. Oilaviy mehmon uyi loyahasini ishlab chiqishdan maqsad, mamalakatimizga tashrif buyurayotgan sayyohlarga milliy urf odatlarimizni ko'rsatib berish, turizm mavsumida joylashtirish vositalarining turlarini ko'paytirish, sohaga mahalliy tadbirkorlarni jalb etish, turizm sohasida oilaviy biznesni qo'llab quvvatlashdan iborat hisoblanadi. Shunday ekan, mehmon uylarining interyeri o'ziga xos tarzda bo'lishi lozim hisoblanadi.

Aholi xonadonlarida oilaviy mehmon uylarini tashkil etish va qishloqqa kelgan mehmonlarga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish orqali ziyoratga, tabiatning so'lim go'shalariga mehmonlar sayrlari tashkil etiladi. Turistlarning qolish muddatini uzaytirish maqsadida milliy urf-odatlar va turli marosimlar o'tkazish xunarmandchilik savdosini yo'lga qo'yish, milliy taomlar tayyorlash jarayonini namoyish etish kabi xizmatlar amalga oshiriladi. Shu bilan birga turistik ob'yektlarda Wi-Fi zonasini tashkil etish, mobil aloqa sifatini oshirish yuzasidan zarur choralar ham ko'riladi. Muhimi bu sa'y- harakatlar tufayli mahalliy aholi bandligi ta'minlanib, daromadi oshadi.

Milliy uyg'unlikka boy bo'lgan mehmon uylari kundalik hayotning shovqinlari va bir xilligidan charchagan zamonaviy sayohatchilar uchun ideal

manzilgoh hisoblanadi. Boshqa oliy darajadagi mehmonxonalar qaranganda, butunlay o'zgacha shinamlikni taklif etuvchibunday turar joylar o'ziga xos maftunkorligi bilan nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholining ham diqqatini jalb etadi. Ammo ko'pchilik tomonidan qiziqarli deb topiluvchi binolarning yoshi va an'anaviy dizaynini hisobga oladigan bo'lsak, odatda eng so'nggi urfdagi sharoitlarga o'rganib qolgan sayyohlar uchun ayrim noqulayliklarni yuzaga keltirishini inkor etib bo'lmaydi, albatta. Bu esa turgan gapki, mehmonxonalar oldiga qanday qilib tarixiy ildizlarga sodiq qolgan holda yangiliklar kiritish borasidagi savolni ko'ndalang qilib qo'yadi.

Milliy mehmonxonalar eng yuqori mehmondo'stlik namunasi ko'rsatishga intilishsada, bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Axir ular o'zining mahsus jihatlarni saqlagan holda rivojlanishi lozim. Oqibatda, mehmon uyining an'anaviy dizayni baribir mehmonlarni jalb etuvchi birlamchi omiligacha qolaveradi.

O'z navbatida, qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida ishlatiluvchi havoning aylanishini ta'minlaydigan zamonaviy tizimlar eski milliy binolarning saqlanishiga putur yetkazishi mumkin hisoblanadi.

Ayrim zamonaviy vositalarni boshqa shu turdagi mahsulotlarga nisbatan joylashtirish juda oson. Mehmonxonaning yo'nalishidan qat'iy nazar, televizor, telefon va xolodilnik kabi texnikalarni o'rnatishda an'anaviy dekordan chekinishga to'g'ri keladi. Yuqori tezlikdagi Wi-Fi tarmog'i hozirda oilaviy mehmon uylari uchun yangilik emas. Ushbu zamonaviy qulayliklarning keng yoyilishiga asosiy sabab sifatida ularning mavjud dekorga deyarli katta ta'sir ko'rsatmasligi bilan izohlasa bo'ladi. Ammo o'rnatilishi juda soda bo'lgan yuqoridagi moslamalar bizga o'tmishning faqatgina bir qismini so'zlaydi xolos.

Kundalik hayotimizda o'ta kerakli, deb hisoblanadigan ayrim zamonaviy texnologiyalar esa eski mehmonxonalar "iqlimi"ga zarar yetkazmasdan moslashtirilishi uchun anchayin ijodiylikni talab etadi.

O'rnatilish jarayoni eng murakkab sanalgan zamonaviy qulayliklardan biri-bu iqlim nazorati tizimidir. Bu esa mehmonxonalar qulaylik yaratishni maqsad qilgan har qanday mehmonxona uchun nihoyatda zarur qism deyish mumkin.

Ammo zaruriyatga qaramasdan, iqlim nazorati tizimini eski binolarga joylashtirish jarayoni juda katta mehnatga ehtiyoj tug'diradi. Vaholanki, binolarning ko'pchiligi iqlim nazorati tizimi vujudga kelishidan ham avval bunyod etilgan bo'lib, ularda mavjud eski iqlim nazorati tizimi zamonaviy yechimlarga sharoit yaratish uchun yetarlicha imkoniyatga ega bo'lmaydi.

Turli hududlardagi eski mehmonxonalar uchun iqlim nazoratining zamonaviy yechimlari muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, isitish, shamollatish va havoni aylantirish yechimlari bir vaqtning o'zida ham yuqori samarali bo'lishi va binoning mahsus dizaynida iloji boricha kam joy egallashiga yo'nalgan bo'lishi uchun bino puxta rejaga asoslangan bo'lishi kerak. Keying jiddiy muammo kondensator bloklarining joylashtirilishi hisoblanadi.

Eski qo'llanmalar uylar tomidagi og'ir bloklarni ko'tara olmaydigan holatda bo'lishi mumkin, shuning uchun o'rnatmalarning yengil bo'lishi favqulodda muhim. Vanihoyat, yangi yechim mehmonxonadagilar oromini buzmaslik uchun iloji boricha shovqinsiz bo'lishi zarur. Energiya samaradorligi va boshqa omillar iqlim nazorati yechimlarini to'g'ri tanlashda muayyan ahamiyat kasb etadi, ammo har qanday mehmonxona egasining birlamchi vazifasi binoning bizni o'tgan davrga qaytaruvchi serhasham muhitini saqlab qolish hisoblanadi.

Avvalo, 1928-yilda ochilgan "Chicago Motor Club" 1978-yilda Tarixiy joylar milliy reyestriga kiritilgan. "Hilton Hampton Inn" tarmog'I mehmonxonasiga aylanishi uchun 2015-yilda kapital ta'mirdan chiqarilishidan avval ushbu bino yaroqsiz holga kelib qolgan va bir necha yillar bo'shab yotgan edi. Mehmonxona egalari interyerni yangilash va qulayliklar yaratish ishlari davomida Art-deko bini dizaynini saqlab qolishning muhimligini hisobga olgan.

Zamonaviy komfort va qulaylikni boy madaniy an'analar bilan muvaffaqiyat bilan uyg'unlashtirish boshqa eski mehmonxonalar uchun ham hashamatni afzal ko'ruvchilar e'tiborini jalb etish jihatdan manfaatli bo'lardi. Shunday koshonalar ko'p yillar xizmat qilishini ta'minlash butun yer kurrasi bo'ylab madaniy sayyohlik uchun imkoniyatlar eshigini ochib, turizm sohasida salohiyat va aqlbovar darajadagi yangi sarhadlarni kashf etadi.

Zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan mehmonxonalarga qaraganda, qadimiy va milliylik aks etgan mehmonxonalar sayyohlar e'tiborini jalb etmoqda. Milliylik aks etgan interyer bu klassik usulidagi ko'rinish hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, aholi xonadonlarida oilaviy mehmon uylarini tashkil etish va qishloqqa kelgan mehmonlarga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish orqali ziyoratga, tabiatning so'lim go'shalariga mehmonlar sayrlari tashkil etiladi. Turistlarning qolish muddatini uzaytirish maqsadida milliy urf-odatlar va turli marosimlar o'tkazish xunarmandchilik savdosini yo'lga qo'yish, milliy taomlar tayyorlash jarayonini namoyish etish kabi xizmatlar amalga oshiriladi. Mehmon uylari mehmonxona biznesining eng jozibali tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki chet ellik sayyohlarni ko'p yulduzli o'ta zamonaviy hamda hashamatli mehmonxonalardan ko'ra, milliy uslubdagi, o'zbekona tutumga ko'ra tashkil etilgan mehmon uylari ko'proq qiziqtirmoqda. Ular ana shunday maskanlarda hordiq chiqari, xalqimiz turmush tarzi, urf odatlari va an'analari bilan yaqindan tanishishni ma'qul ko'rishyapti.

### **3.2. Mehmon uylari hodimlarining mehnat munosabatlari etikasi**

**Etika-** yunoncha “ethikos” so'zidan olingan bo'lib, “axloq, xulq, odob” ma'nolarini anglatadi. Etika atamasini birinchi bo'lib qadimgi yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan.

**Etiket** – fransuzcha “etiquette” so'zidan olingan bo'lib, tom ma'noda “etiketka” yoki “birkani” anglatadi. Keng ma'noda esa “o'zini tutish, axloq, odob, xushmuomalalik qoidalari” tushuniladi.

Mehmonxona hodimlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular ish yuzasidan har xil madaniyat darajasiga ega bo'lgan, turli millat vakillariga mansub insonlar bilan muloqotga tushadilar. Muloqot predmeti bo'lgan masalalarning ijobiy va tez hal bo'lishi uchun munosabat qilishning universal qoidalaridan to'g'ri foydalanishlari va o'zlarining insonga xos fazilatlarini esdan chiqarmasliklari kerak.

Mehmonxona rahbar va hodimlari o'z faoliyatlari yuzasidan respublikaning boshqa joylariga va chet davlatlarga ham boorish mumkin. Chet mamlakatlarga borganda ham borishlari mumkin. Chet mamlakatlarga borganda ham shu mamlakatning qonunlariga va xalqning urf-odatlariga rioya qilishlari hamda hamkorlari bilan munosabatda etiket qoidalaridan foydalanishlari lozim.

Insonlarning so'z boyligi, imo-ishoralari va gapirish usuli har xil shakllar ta'sirida shakllanadi. Har qanday inson ham qandaydir darajada atrof-muhit mahsuloti hisoblanadi. Shu boisdan ham mijozlar, hamkor va boshqalar bilan bo'ladigan suhbatlarda, birinchidan, vaziyatni hisobga olgan holda kerakli so'z va gaplarni tanlab gapirish, so'zlarning oxirini "yutmasdan" aniq va ravon talaffuz qilish, ikkinchidan, ko'cha va jargon so'zlarni ishlatmaslik lozim, chunki ko'cha va jargon so'zlarining ishlatilishi xizmatlar sohasi hodimlarining madaniyati pastligidan darak beradi va imidjini pasaytirib yuboradi.

Ba'zi birovlar juda ko'p kuladi, albatta, kulgi insonga xos yaxshi fazilatlardan biri, lekin kulish ham har xil bo'ladi. O'z mavrida, chiroyli tabassum qilish odamlarga malham beradi, kayfiyatini ko'taradi, suhbatning ijobiy borishi garovi hisoblanadi. Lekin ba'zi bir kishilarning miyig'ida bo'lar bo'lmasga kulaverishi boshqalar qalbida nafrat uyg'otadi. Aksariyat kishilar bunday kulgi turiga uni mazax qilish deb qaraydi.

Mehmonxona rahbar va hodimlari uchun o'zaro hamda xalqaro munosabat qilishning universal vositalaridan yana biri bu- xushmuomalalik hisoblanadi.

Xushmuomalalik- bu nafaqat mijozlarni, balki, hamkorlar, boshqa insonlarni ham hurmat qilish belgisi va madaniyatli kishilar o'rtasidagi muomala qilishning odatga aylangan usuli sifatida qaraladi. Xushmuomalalik o'zgalarga va o'ziga hurmat bilan qarash hamkorlar va suhbatdoshlar manfaatini hisobga olish hamda ularning hurmatga sazovorligini tasdiqlashning elementar qoidasidir.

Xushmuomalalik munosabatga aloqador kishilarning kayfiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, natijada tomonlarning bir-biriga bo'lgan hurmati oshadi, bu esa o'z navbatida masalalarning ijobiy hal bo'lishiga, ish yuzasidan aloqalarning yanada mustahkamlanishiga imkon beradi.

Mehmonxonada xizmat ko'rsatuvchi hodim muomalasidagi chehrasining holati unga foyda keltirishi yoki qarshi ishlashi mumkin. Lekin foyda keltirar ekan deb, har joyda va har qanday vaziyatda ham doimo jilmayishi kerak emas, chunki ba'zi bir vaziyatlarda u o'rinli bo'lmasligi mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, boshqa barcha vaziyatlarda tabassum hamkor va suhbatdoshlarga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning kayfiyatini ko'taradi.

Mehmonxona hodimlari o'zlarining faoliyati davomida har xil tabaqali va tabiatli kishilar bilan, turli millat va din vakillari bilan muloqotga tushishlari, birga faoliyat ko'rsatishlari va birga yashashlari ham mumkin. Hatto shunday holatlar bo'ladiki, umuman yoqtirmaydigan madaniyatsiz, o'ta tajang, o'zini tuta olmaydigan kishilar bilan muloqotga tushishga to'g'ri kelishi mumkin. Bunday kishilar bilan muloqotda bo'lishda ularning muomala qilish tarziga va hatti-harakatlariga ko'p e'tibor bermasdan, etiket qoidalariga ko'ra harakat qilish lozim, chunki sabr- toqat qilgan kishi albatta o'z maqsadiga erishadi va uning ishi ijobiy yakunlanadi.

Nutq odobi mehmonxona hodimining umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. Nutq madaniyati-deganda, aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini suhbatdoshni hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos adabiy me'yordagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi. Har qanday noxush xabarni ham suhbatdoshga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun inson tilni, adabiy til me'yorlarini, ayniqsa, turizm va mehmonxona biznesi sohasida xorijiy til me'yorlarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli va odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli insonlarga taqlid qilish ulardan o'rganish orqali erishish mumkin.

Mehmonxona hodimlari o'zlarining faoliyati davrida xizmat yuzasidan turli xil xatlar va kelgan xatlarga javoblar yozishadi. Bundan tashqari, o'z hamkorlari va mijozlari bilan telefon orqali muloqot qilishadi. Xatlar yozishda va telefon orqali gaplashishda ham hodimlar madaniyatli kishilar sifatida jamiyatda ham xalqaro tajribada qabul qilingan qoidalarga rioya qilishlari shart.



Mehmonxona biznesi shunday faoliyatki, unda ko'p masalalar hamkorlar, mijozlar o'rtasida aloqa o'rnatilganidan keyin xatlar va telefon orqali hal qilinadi. Bundan tashqari, yuzma-yuz uchrashuvlarni tashkil qilishda ham xat va telefonning ahamiyati katta.

Mehmonxona sanoatining mehmondo'stligi sohasi har qanday mijozga to'liq mos keladigan eng yaxshi xizmatlarni taqdim etishga yordam beradigan muayyan qoidalarga rioya qilishi kerak. Mehmonxona xizmatlarining barcha xizmatlar majmui mehmonga kerak bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Uyidan uzoqda bo'lgan kishi o'zini qulay his qilishi kerak.

Mehmonxona etiketi- insonning o'z kasbiy burchiga bo'lgan munosabatini aniqlaydigan axloqiy me'yorlardan iborat. Hodimning axloqiy fazilatlarini uning kasbiy mahoratining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati mehmondo'stlik sanoati hodimi uchun eng muhim va zarur sifat hisoblanadi.

Mehmonxona biznesida mijozlar bilan muloqot qilish qobiliyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Barcha hodimlar, birinchi navbatda, mijozlar bilan muntazam aloqada bo'lgan hodimlar mahsus tayyorgarlikdan o'tadilar: hodimlarga turli mijozlar bilan muloqot qilish, telefonda gaplashish, shikoyatlarni eshitish va boshqalar o'rgatiladi. Bundan tashqari, hodimlarning har bir toifasi (qabulxona xizmati, barmenlar, garsonlar uchun) o'z ishlarining bosqichma-bosqich (masalan, yurish, jilmayish, salomlashish, ichimliklarni taklif qilish va boshqalar) tasvirlangan batafsil ko'rsatmalari ishlab chiqiladi.

Mijoz- mehmonxona sanoatining barcha faoliyatidagi asosiy ko'rsatkichdir. Buning uchun har qanday sharoitda kompaniya siyosatini ushbu tamoyillar bo'yicha qurish kerak. Mehmondo'stlik va mehmonxona sanoati bir-birini to'ldirib turuvchi sinonimlardir.

Bugungi kunda mehmonxona xizmatlari bozorining tez va jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori standartlari mehmonxona korxonasini boshqarishda eng muhim vazifa bo'lib hisoblanadi.

Chunki bir necha yil oldin ustunliklar biroz boshqacha ko'rinishga ega bo'lgan (masalan, operatsion ishlab chiqarishni boshqarish).

Mehmonxona sanoatida hodimlar- korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi, shuning uchun xizmat ko'rsatish sifati hodimlarning yaxshi niyatlari va malakasiga bog'liq.

Mijozning istaklari va ehtiyojlarini shartsiz bajarish ham muvaffaqiyatga erishishning kalitidir. Odamlarning to'g'ri boshqariluvi mehmondo'stlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Mehmonxona biznesining haqiqiy jarayonlarini tushunish uchun korporativ madaniyatni tahlil qilish kerak.

Bugungi kunda, ko'pchilik mehmonxona biznesi amaliyotchilari mehmonxona biznesining strategiyasi, odamlarning tipi va kasbiy etiket korxonaning korporativ madaniyatini aks ettirishi mumkinligini ta'kidlamogda.

Korporativ madaniyat- bu mehmonxona korxonasi hodimlariga ta'sir doirasi va boshqa qiymat tizimini o'z ichiga oladi. Har bir mehmonxona o'z korporativ dasturiga ega bo'lib, bu hodimlarga ijobiy munosabatda bo'lib mehmonlarni samimiy kutib olishga xizmat qiladi.

Radisson Corporation o'z hodimlarini mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishga yo'naltiradi. Iste'molchilar xizmatlarning qoniqarsiz sifati haqida shikoyat qilishlarini to'g'ri qabul qilish joiz. Har bir hodim uchun asosiy so'z ham quyidagicha bo'lishidir: "Ha men qila olaman".

Renaissance mehmonxona hodimlari ( Marirriot International) shiori: " Men buni bajonidil qilaman".

Mehmondo'stlik - bu xizmat yoki mijozlarga xizmat ko'rsatish. Yaxshi xizmat ko'rsatish mehmonxona biznesining mavaffaqiyatga erishishi uchun kalit. Sifatli xizmatlarni ko'rsatish- bu mehmonni kutganidan biroz ko'proq berish imkoniyatidir. Mehmondo'stlik muhitini yaratish har qanday mehmonxona biznesining maqsadi hisoblanadi, shuning uchun har bir hodim mijozlarning talablarini qondirish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Har qanday mehmonxona xizmatlarini sotish, mahsulotni sotishdan farq qiladi, chunki xizmatlar xizmat ko'rsatuvchi xodimlari bilan ajralib turadi. Shu sababli, mehmonxona biznesida mijozlar bilan aloqa qilish qobiliyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Barcha xodimlar, ayniqsa mijozlar bilan muntazam aloqada bo'lganlar maxsus tayyorgarlikdan o'tadilar: xodimlarga turli mijozlar bilan muloqot qilish, telefonda gaplashish, shikoyatlarni tinglash, mijozlar bilan muloqot qilishni o'rgatishadi. Xodimlarning har bir toifasi bo'yicha ularning ishi bosqichma-bosqich (masalan, yurish, jilmayish, salom aytib berish, ichimliklarni taklif qilish va boshqalar) tasvirlangan batafsil ko'rsatmalar ishlab chiqiladi (qabul qilish xizmati, barmenlar, garsonlar uchun).

Xodimlarning umumiy qoidalaridan quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- xodimlar a'zosi har doim kerakli xizmatni u xodim uchun qulay vaqtda emas balki, mijozga zarur vaqtda ko'rsatishi lozim;
- mehmonxona xodimi mehmon bilan muzokara olib borish huquqiga ega emas;
- ishchi mijozga nisbatan ijobiy nuqtai nazarni namoyon qilishi kerak: hurmat ko'rsatish, suhbatni muloyim, do'stona ohangda o'tkazishi, ovozini ko'tarmasligi, noroziligini ko'rsatmasligi, masalan, mijozning ishchi kunining oxirida kelib qolishi, absurd, tajovuzkor, ahmoq, mast iste'molchilar, mijozga uning muammosi haqida har qanday yo'l bilan tashvishlanayotganini ko'rsatishi kerak;
- agar mijoz ishchiga biror narsa haqida ma'lumot bergan bo'lsa, u mijozni tushunish uchun maksimal istakni namoyish etishi, boshini silkishi, «tushunarli», «yaxshi» so'zlarini kiritishi va agar u mijozning xohish-istagini tushunmasa, «agar men to'g'ri tushungan bo'lsam, Siz xohlaysizki, ... " deya so'rashi o'rinli;
- mijozga to'liq va aniq xabar berishi va hatto unga yoqimsiz xabarlarni yetkazish kerak bo'lsa, masalan, mijoz qo'shimcha haq to'lashi kerak;
- mijozlar bilan bog'liq muammolarni tez va o'z vaqtida hal etish zarur. Agar ishchi muammoni o'zi hal qila olmasa, u mijozni (va unga hamrohlik qilgan holda) masalani hal qilish uchun boshqaruvchiga yuborishi kerak.

Mijozning istaklarini amalga oshirishning mutlaq ishonchliligini ta'minlash, xususan, mijoz istagan vaqtda uni uyg'otish kerak bo'lsa;

- ishchi ishonch va vakolatni namoyish qilishi va mijozning kutganlarini qondirishi kerak.

Mehmonxona xodimlarining tashqi ko'rinishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yagona shakli majburiy va mijozlar bilan bevosita aloqasi bo'lmagan xodimlarning shakli bu aloqalarni amalga oshiradigan shaxslar shaklidan farq qilishi kerak. Bu xodimlarni kuzatishni osonlashtiradi. Ichki qoidalar tashqi qiyofani qat'iy tartibga soladi: kiyim toza, dog' bo'lmagan, dazmollangan holda, "qirrali" bo'lmasdan, hamma tugmachalari mavjud bo'lishi kerak. Chiroyli sochlar, toza qo'llar, ayollar uchun eng kam zargarlik buyumlari. Piyoz, sarimsoq va ayniqsa, terning hidi ruxsat etilmaydi. Bundan tashqari, xodimlar quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari kerak:

- mehmonlarning ismlarini, ularning odatlarini, sevimli ichimliklarini yodlash;

- agar iloji bo'lsa, barcha mijozlarga bir xil vaqt ajratish lozim, mijozlarning tashqi ko'rinishidan qat'iy nazar;

- mijozlarning suhbatlariga quloq solmaslik;

- mijoz tomonidan biror taklifsiz o'z fikrlarini bildirmaslik;

- mijozlar bilan siyosat va dinni muhokama qilmaslik;

- mijozlar ishtirokida hamkasblar bilan janjallashmaslik;

- mijoz ishchining hamkasbiga gapirishini kutishi kerak emas;

- keyingi mijozga o'tishdan oldin, avvalgi mijozga biror narsa kerak bo'lsa, undan so'rash kerak;

- har doim mijozga xizmatlarning bir necha variantlarini tanlashni taklif qilish;

- mast iste'molchilarga norozilikni ko'rsatmaslik va u bilan juda ham do'stona ohangda muloqot qilmaslik;

- mehmonxona, uning xizmatlari, turli xizmatlarning joylashgan joyi, menyularga buyurtma berish tartiblari va boshqalar haqida imkon qadar ko'proq

narsani bilish. Mehmonxonaning raqobatchilardan ustunligini doimo ta'kidlab o'tishi;

- bolalarga muloyimlik bilan muloqot qilish kerak, lekin kattalardek rasmiy ravishda emas. Boshqa tomondan, ish vaqtida bolalar bilan o'ynash mumkin emas;

- o'zining qaddi-qomatini tik tutish, mijoz bilan oraliq masofani saqlab turish (agar siz juda yaqin bo'lsangiz, mijoz noqulaylik sezadi);

- va nihoyat, siz tabassum qilishingiz kerak (Sovet Intourist mehmonxonalaridagi xorijliklarning eng keng tarqalgan shikoyatlari "nima uchun xodimlar jilmaymaydilar?")!

- telefonda gaplashayotganda telefon go'shagini 3-4 chaqiruvdan ko'p kechiktirmaslik kerak. Ishchi mehmonxona nomi (yoki mehmonxona xizmati) va o'z familiyasini tanishtirishi kerak. Agar xodim zudlik bilan qo'ng'iroq qiluvchiga javob bera olmasa, undan qayta qo'ng'iroq qilishni yoki telefon raqamini yozishni so'rash kerak. Mijoz ma'lumotni kutish muddati 45 sekunddan ko'proq vaqt olmasligi, mijozning javobini kutib turishini yoki unga keyin bog'lanishni so'rash lozim.

Mehmonxonada mijozlar ehtiyojini qondirish uchun baholash tizimi bo'lishi kerak. Bunday tizimning axborot manbalari quyidagilar:

1. Kuzatuv. Barcha darajadagi rahbarlar doimo qoniqarsiz xizmat ko'rsatish belgilarini izlashlari kerak. Bunga navbatlar, ma'lumotni uzoq kutish (to'g'ridan-to'g'ri stavkada yoki telefon orqali), xodimlar tomonidan mijozlarni e'tiborsiz qoldirish, mijozga berilgan va'dalarni bajarmaslik, axloqsizlik va nopoklik ham kiradi. Boshqaruvchilarni boshqarish bilan bir qatorda vaqti-vaqti bilan oddiy mijozning niqobi ostida barcha mehmonxona xizmatlari bilan bog'laydigan va uning kuzatuvlarini mehmonxona ma'muriyatiga bildiradigan mehmonxonaga sharhlovchini yuborish kerak.

2. Mehmonlardan so'rovnomalar olish. Anketalar odatda xonalarda bo'ladi. To'ldirilgan anketalar xona tozalovchi xodimlar tomonidan to'planadi va marketing bo'limida qayta ishlanadi.

3. Mehmonxona va uning alohida bo'limlarining moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

4. Mijozlar ehtiyojini qondirish bo'yicha foydali ma'lumotlarni, ba'zi mijozlar aeroportga yo'lda va kamroq darajada porters orqali muloqot olib boradigan haydovchilar orqali ham olish. Tabiiyki, ushbu turdagi mehmonxona xodimlari to'g'ri o'qitilishi kerak.

5. Mijozlarning shikoyatlarini diqqat bilan ko'rib chiqish va xizmatni yaxshilash va shunga mos ravishda mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli choralar ko'rish. Mijozlar tomonidan murojaat qilishlari mumkin bo'lgan xodimlardan norozi mijoz bilan aloqa qilishni o'rgatish talab qilinadi.

Zaruriy ko'rsatmalardan ba'zilari quyida keltirilgan:

- mamnuniyatsiz mijozning shikoyatlarini diqqat bilan tinglash, har qanday shikoyat xizmat darajasini yaxshilashga yordam berishi mumkin bo'lgan foydali ma'lumotdir;

- xotirjamlikni saqlash, boshqa mehmonlar tomonidan eshitilmasligi uchun bezovta qiluvchi mijozni chetga olib chiqish;

- xushyoqishni va yordam ko'rsatishni ifodalash;

- mijozga to'liq gapirishga ruxsat etish, uni to'xtatmaslik, aks holda u gapini boshdan boshlaydi;

- mijoz bilan rozi bo'lmaslik va kelishmovchiliklarni ifoda etmaslik, shuningdek tashqi sabablarga bahona qilmaslik;

- mehmonxona aybdorligini tezda e'tirof etishdan qochish - bu moddiy da'volar, huquqiy choralar va boshqa muammolarni taqdim etish uchun asos bo'lishi mumkin. Nimani tushunish kerakligini aytish;

- muammoga e'tibor qaratgani uchun mijozga rahmat aytish;

- muammoni darhol hal qila olmasangiz yoki uni o'zingiz hal qila olmasangiz, bosh menejer bilan bog'lanish;

- agar mijoz ish beruvchining ma'muriga shikoyat qilsa, mijozning huzurida ushbu xodim bilan "gap talashmaslik" kerak. Aytgandek, ko'p hollarda shikoyat bir tomonlama bo'ladi va ishchi hayfsanga emas, balki yordam muhtoj.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xushmuomalalik munosabatga aloqador kishilarning kayfiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, natijada tomonlarning bir-biriga bo'lgan hurmati oshadi, bu esa o'z navbatida masalalarning ijobiy hal bo'lishiga, ish yuzasidan aloqalarning yanada mustahkamlanishiga imkon beradi.

Mehmonxonada xizmat ko'rsatuvchi hodim muomalasidagi chehrasining holati unga foyda keltirishi yoki qarshi ishlashi mumkin. Lekin foyda keltirar ekan deb, har joyda va har qanday vaziyatda ham doimo jilmayishi kerak emas, chunki ba'zi bir vaziyatlarda u o'rinli bo'lmasligi mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, boshqa barcha vaziyatlarda tabassum hamkor va suhbatdoshlarga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning kayfiyatini ko'taradi. Mehmonxona - faoliyati mahalliy va xorijiy mehmonlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan korxonadir. Shuning uchun xodimlar uchun qat'iy qoidalar - har qanday madaniy an'ana va fikrlash tarziga hurmat bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, hamma bilan muammosiz muloqot qilish istagini bildirishdadir. Istalgan mehmonxonaning g'ururi - bu turli tillarda gaplasha oladigan va o'z bilimlari va muloqotning moslashuvchanligi bilan mehmonlarga yaxshi taassurot qoldiradigan xodim.

Mehmon, xodimlarning ishiga to'sqinlik qiladigan odam emas, aksincha, u barcha xodimlarning ishlashi uchun asosiy sababdir. Mehmonxona xizmati majburan ko'rsatilishi kerak emas, balki vijdonan, yurakdan. Aksincha, har bir xodimga o'zlarini isbotlash va pul topish imkoniyatini beradigan xushmuomalalikni ta'minlaydigan mehmonlardir.

### **3.3. Oilaviy mehmon uylarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash chora- tadbirlari**

Mehmonxona – mijozlar dam olishi, hordiq chiqarishi, ishlashi va tijoratbilan shug'ullanishi uchun zarur barcha narsalar bilan ta'minlashi lozim bo'lganma'muriy, ishlab chiqarish va yashash majmui. Tabiiyki, u himoyalashning

alohidaqoidalarini taqozo etadi. Mehmonxona mijozlarining xavfsizligini ta'minlashning bir qancha usullari ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan.

**Birinchidan,** yong'indan saqlash, qo'riqlash, sanitariya, texnika xizmatlariva boshqalar mazkur mehmonxona uchun ishlab chiqqan barcha xavfsizliqoidalariga rioya etish lozim.

**Ikkinchidan,** ular xodimlar va mijozlar xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutadigan standart ish tartib-taomillariga rioya etishlari zarur.Mehmonxonada mehnat muhofazasi va himoyasining umumiy qoida va ko'rsatmalaridan tashqari, har bir xizmat va ish lavoziminig o'ziga qaratilgan instruksiyasi bo'lishi kerak.

Mehmonxona xodimlari hammasi tibbiy ko'rikdan o'tishlari va ish joyi instruktajini olishlari lozim.Biz quyida turistik firma mexmonxonasi misolida mahalliy turizmning ayrim xizmat xodimlari uchun mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha beriladigan tavsiyalar va ko'rsatmalarni keltiramiz.

**Uchinchidan,** xodimlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarnikuzatib borishlari va ular to'g'risida maxsus xizmatlarga ma'lumot berishlari shart.

**To'rtinchidan,** maxsus xizmatlar turistlarni himoya qilishning yanginormalari va qoidalarini ishlab chiqishi uchun ularga sodir bo'lgan barchafavqulodda hodisalar to'g'risida ma'lumot berish lozim.

Mehmonxona xodimlari o'z faoliyatida hamisha ziyrak va hushyorbo'lishlari kerak. Favqulodda hodisa sodir bo'lgan dastlabki daqiqalarda zudlikbilan tegishli choralar ko'rish muhimdir. Tibbiy yordam chaqirishdan tashqari,xodim shikastlangan mijozga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishi lozim.Hushyor va ziyrak xodim muassasa hududida paydo bo'lgan begonaodamlarni yoki o'zini shubhali tutayotgan shaxslarni darrov payqaydi. Bundayxodimlar mijozlar unutib qoldirgan qimmatbaho buyumlarni darhol ilg'aydilar,ularga buyumlarni saqlash uchun seyflardan foydalanishni taklif qiladilar,umuman, mijozlarga tegishli buyumlarning asralishi haqida qayg'uradilar, bundanmijozlar ham, mehmonxona menejerlari ham naf ko'radilar.



O'g'riliklar – yirik mehmonxonalarining asosiy muammosi. Mijozlar ixtiyoriga berilgan har xil buyumlar, masalan, pichoq - sanchqilar, idish-tovoqlar, sochiq va choyshablar, hatto televizorlar yo'qoladi. Ayrim mijozlar o'zigato'qligiga qaramay o'g'irlikdan o'zlarini tiya olmaydilar. Bu nuqtai nazardan Sidneydagi xos restoranlarning biridan kumush pichoq, qoshiq va vilkalarni o'g'irlagan ayol voqeasi diqqatga sazovor. Ayol mazkur buyumlarni sumkasiga solayotganini ko'rib qolgan ofitsiantlar bu haqda restoran menejeriga xabar berganlar va undan nima qilishni so'raganlar. Menejer restoran egasiga hisobtaqdim etgan va buyumlar qaytarilgan holda hisobdagi summa kamaytirilishini ko'rsatgan. Restoran egasi hisob bo'yicha haq to'lashni ma'qul ko'rgan va ofitsiantlarga hushyorligi va ehtiyotkorligi uchun tashakkur bildirgan.

Eshiklarni ochuvchi va yopuvchi sistemalar hozirda tobora murakkablashib bormoqda. Ko'pgina mijozlar va xodimlar xonalarga kirish uchun kreditkartochkalariga o'xshaydigan kalitlardan foydalanadilar. Har safar mijozlar mehmonxonani tark etganida ular yashagan nomerlarning shaxsiy kodlari qiladi. Tabiiyki, bunday kalitlarni saqlashda juda ehtiyot bo'lish kerak.

Mehmonxona xodimlari nomer kalitini so'ragan har bir notanish kishining shaxsini sinchiklab tekshirishlari shart. “Qirq beshinchi nomerning kalitini olsambo'ladimi?” degan savolga “Iltimos, ism-sharifingizni ayting”, deb javob berish kerak. Mehmonxona xodimlari mijozlarning ism-sharifini begona shaxslarga oshkor etmasligi yoki ular to'xtagan nomer haqida gapirmasligi lozim.

Xavf-xatarlar aniqlanganida, ayniqsa, favqulodda holatlar sodir bo'lganida quyidagichora-tadbirlarni ko'rish zarur.

**O'g'rilik va talonchilik.** Bunday hollarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar xotirjamlikni saqlashlari va pullarni ularga chiqarib berishlari kerak, aks holda mijozlar jabr ko'rishi mumkin. Qurollangan talonchilarga qarshi qurol bilan javob berish turistlarni himoya qilishning yaxshi usuli emas. Albatta, o'g'irlik va talonchiliklarning oldini olish kerak, lekin, agar ular sodir etilgan bo'lsa, mehmonxona ichida qurol ishlatib, jinoyatchilar bilan otishish yaramaydi. Mijozlar va xodimlarning xavfsizligi hamma narsadan ustun turadi. Ayni vaqtda,

xodimlar ziyraklikni yo'qotmasliklari va zarur holda talonchilarni tanib olish uchun diqqat bilan kuzatishlari va maxsus qo'riqlash xizmatlariga bu haqda ma'lumot berishlarishart.

**Yong'inlar.** Yong'inlarning har xil turlari va ularga mos o't o'chirish vositalari mavjud. Mehmonxona binosi bo'ylab aylanayotganida xodim ma'lum joyda muayyan turdagi o't o'chirish vositasi noto'g'ri o'rnatilganini aniqlashi va bu kamchilikni bartaraf etishi mumkin. Yong'in chiqqan hollarda xodim yong'in o'chog'ini aniqlashi va o't tarqalmasligi uchun darhol eshiklarni berkitishi lozim.

Liftlardan foydalanish mumkin emas, chunki yong'in paytida lift shaxtasi tutunchiqadigan mo'riga aylanadi, lift tugmalari esa yuqori haroratga o'ta ta'sirchan bo'ladi. Lift qavatlar orasida to'xtab qolishi mumkin. Xodimlar zarur holda mijozlarga yordam berish va ularni evakuatsiya qilishni tashkil etish uchun tegishli ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Yonish jarayoni to'xtashi uchun oksidlanish-tiklanish ekzotermik zanjir reaksiyasi tuzilishi kerak. Bu reaksiyada to'xtashning fizik hamda kimyoviy usullari qo'llaniladi.

Fizik usullari: alangan yonuvchi modda yuzasidan uzib tashlash, yonuvchi modda yuzasi haroratini alanganlash haroratidan pasaytirish, oksidlovchi modda (kislrod) konsentratsiyasini kamaytirish (ko'pinchayonmaydigan gazlar konsentratsiyasini oshirish hisobiga) va yonuvchi modda bilan oksidlovchini bir-biridan ihotalash. Kimyoviy usullar: yonish reaksiyasini tormozlash hisobiga amalga oshiriladi.

O't o'chirish vositalari asosan uch turga bo'linadi:

1) yonishni tugatish usuli bo'yicha – sovituvchi, aralashtiruvchi ixotalovchi, ingibiritlashtiruvchi;

2) elektr o'tkazuvchanligi bo'yicha – elektr tokini o'tkazuvchi (suv, bug', ko'pik), elektr tokini o'tkazmaydigan (gazlar, kukunli birikmalar);

3) zaharliligi bo'yicha – zaharli (freon, brometil), kam zaharli (karbonat gidrid, azot), zaharsiz (suv, ko'pik, kukunli birikmalar).

O't o'chirish mashinalari uchun korxonalarda maxsus depo quriladi. Ularmagistral yo'llar yoniga, barcha ob'ektlarga mashinalar bemalol bora oladiganqilib quriladi. Zarur bo'lib qolsa, qo'shni korxonaga ham tez yordam bera olishuchun depolar korxonadan chiqish darvozalari yaqinida bo'lgani maqul. Ularningxizmat qilish radiusi A, B va V toifali korxonalar uchun 2 km. Bo'lishi lozim.

Xizmat radiusi bundan katta bo'lgan korxonalarda qo'shimcha ravishda yong'inpostlari quriladi.

**Elektr toki urishi.**Elektr uskunalarning nosozligi yoki ularni ishlatish qoida – talablariga amalqilmaslik, odamning shikastlanishiga olib keladi. Elektr toki odam tanasiga termik,elektrolitik va biologik xilda ta'sir etishi mumkin. Natijada odamning nafasolishida, yurak faoliyatida, moddalar almashuvida, qon tarkibida va boshqaa'zolarida o'zgarish bo'lishi mumkin.

Elektrdan shikastlanish elektrik kuyishga, terining metallanishiga, elektrbelgilariga, elektrooftalmiyaga, mexaniq ta'siriga farqlanadi. Elektrdan kuyishto'rt darajada ifodalanadi, ya'ni termik qizarishi, pufakchalar hosil bo'lishi, teriyuzasining mo'rtlanishi va teri to'qimasining to'liq kuyib ketishida namoyonbo'ladi. Shuningdek, odamni tok urish holati ham to'rt darajada baholanadi:

- I. – darajada odam xushini yo'qotmaydi, muskullar qisqaradi;
- II. – darajada muskullar qisqaradi, xushini yo'qotadi, lekin nafas olishisaqlanib, yurak ishlab turadi;
- III. – darajada nafas olishi, yurak faoliyati buziladi, xushini yo'qotadi;
- IV. – darajada tok urish bilan qon aylanishi va nafas olish to'xtab, kliniko'lim yuz beradi.

Elektrdan shikastlanish hodisalari ko'proq 1000 voltgacha kuchlanishdagiqurilmalarni qo'llashda, tok urishi esa 1000 voltdan yuqori kuchlanishdaishlaydigan elektr qurilmalari tok o'tkazuvchan qismlariga odam tanasining birorjoyi tegishli natijada sodir bo'ladi.

Elektr tokini organizmga – tanaga ta'siri shikastlanishga olib kelishi ko'pxususiyatli bo'lib, quyidagi omillarga bog'liq:

- tokning turi va miqdoriga, chastotasiga;
- ta'sir qilish vaqti va yo'liga;
- kuchlanishdagi qismlarni ulash joyiga, yuzasiga, kuchlanish miqdoriga;
- tashqi muhit sharoitiga va inson tanasi qobiliyatiga;
- himoya vositalaridan foydalanishiga va boshqalar.

**Bombalar.** Terroristik aktlar yoki jinoyat olamida ta'sir doirasini taqsimlash uchun portlovchi moslamalardan foydalanish jahonning barcha mintaqalaridatarqalgan. Ko'pincha jinoyatchilar bo'lajak terroristik akt haqida politsiya, ma'muriy ofislar yoki turistik muassasalarga xabar beradilar. Shu bois portlash xavfi tug'ilgan hollarda xodimlar:

- bomba qayerdaligini;
- u taxminan qachon portlashini;
- nima uchun bomba aynan shu yerga qo'yilganini;
- portlash xavfi haqida xabar qiluvchining shaxsini aniqlashlari lozim.

Telefon orqali qo'ng'iroq qilgan shaxs bilan so'zlashishda davom etib, xavf xatar haqidagi signalni qabul qilgan xodim bu haqda boshqa xodimga xabar berish kerak. Shunda operator qo'ng'iroq haqiqiy yoki soxtaligini aniqlashi, birinchi xodim esa bomba qo'yilgan joyni surishtirib bilishi mumkin.

**Evakuatsiya.** Barcha muassasalarda favqulodda holatlarda mijozlar va xodimlarni evakuatsiya qilishning o'z maxsus tartib-taomillari ishlab chiqilishi va har bir xodim bunday hollarda qanday ish tutishni bilishi shart. Xavf-xatartug'ilgan hollarda kommutatsiya bo'limi butun mehmonxonaning o'ziga xos markaziga aylanadi, barcha majburiyatlar aynan shu yerda taqsimlanadi va nazorat qilinadi. Barcha xodimlar o'z rollarini bilishlari va vazifalarini xotirjambajarishlari kerak.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, Mehmonxona – bu qulay istiqomatgoh, ma'muriy va ishlab chiqarish kompleksi bo'lib hisoblanadi. Agar mehmonxona har tomonlama qulay va albatta hamma xavfsizlik choralari ko'rilgan

bo'lsa albatta sayohatchilar o'zlarini qulay his qiladilar. Sayyohlar mehmonxonada dam olishlari, ko'ngil xushlari, ishlashlari va biznes uchun barcha sharoitlardan foydalanishlari mumkin. Tabiiyki, mehmonxonada alohida xavfsizlik tartib-qoidalariga amal qilinadi. Ekspertlar tomonidan bu borada qonun-qoidalar ishlab chiqilgan. Ular, yong'indan saqlash, qo'riqlash, sanitariya, texnika xizmatlariva boshqalar mazkur mehmonxona uchun ishlab chiqqan barcha xavfsizlik qoidalariga rioya etish lozim. ular xodimlar va mijozlar xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutadigan standart ish tartib-taomillariga rioya etishlari zarur.

## XULOSA

Mehmonxona – bu butun kun davomida murakkab texnologik jarayon sodir bo'luvchi bino bo'lib, unda mijozlarga nomerlar berilishi, shuningdek mehmonxona mahsulidan shinam, qulay va xavfsiz foydalanishga yo'naltirilgan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilishi kafolatlanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlari ancha jo'shqin rivojlanmoqda. Bu mehmonxona servisida band bo'lgan tijoratchilarga katta imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekiston bilan chet elda mehmonxona ishini tashkil etishdagi keskin tafovutlar asta-sekin yo'qolib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining mehmonxona korxonalari mijozlarga xizmat ko'rsatish saviyasini, nomerlarning shinamligi va qulayligi darajasini, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning malakasini izchil oshirib bermoqdalar. Shu o'rinda oilaviy mehmon uylari haqida gapirib o'tish joiz hisoblanadi. Oilaviy mehmon uyi – mazkur mehmon uyida uy egasining oila a'zolari bilan birga yashash tamoyili bo'yicha bir vaqtning o'zida 10 nafargacha tashrif buyuruvchilarga vaqtincha yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi xususiy uy-joydir. Barcha boshqa joylashtirish vositalari kabi oilaviy mehmon uylari ham turizm sohasini jadal rivojlanishiga katta turtki bermoqda. Oilaviy mehmon uylarining o'ziga xos jihatlaridan biri bu kamharjligidadir ya'ni bu mehmon uylari nafaqat milliylikni ko'rsatib beradi balki harajatni xam kamaytirishga imkon beradi.

Oilaviy mehmon uylari xar bir davlatning o'ziga xosligini aks ettirib turuvchi joylashtirish vositasi hisoblanadi. Yuqorida keltirib o'tilgan xorij oilaviy mehmon uylari buni yaqqol ko'rsatib turibdi. Ya'ni oilaviy mehmon uylarida o'tgan asrning o'tgan yillari, tarixni va albatta an'analarni ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi

«Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-3509-sonli qarori va boshqa ko`plab turizm sohasiga oid qator farmon, qarorlarning chiqarilishi bu turizm sohasining jadal rivojlanishiga katta turtki bermoqda.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, jumladan hududlarda ishga solinmagan qulay va tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanishni yo`lga qo`yish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yuksak samara bermoqda. Turizm infratuzilmasini kengaytirish, sayyohlarning maroqli hordiq chiqarishi uchun munosib sharoit yaratishga alohida e`tibor qaratilmoqda.

Urf-odatlarimiz, madaniyatimiz, xalqimizning mehmondo`stligi, shuningdek, boy madaniy merosga egaligimiz tufayli Samarqandga sayyohlarning tashriflari ortmoqda. Shuni hisobga olgan holda viloyatimiz hududi bo`ylab, barcha qulayliklar, shart-sharoitlarga ega bo`lgan oilaviy mehmon uylari tashkil etilmoqda. , Samarqand shahri Turizm sohasi jadal sur`atlarda rivojlanayotgan shaharlardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, viloyatimiz hududi bo`ylab, barcha qulayliklar, shart-sharoitlarga ega bo`lgan oilaviy mehmon uylari tashkil etilmoqda. 2019-yilning yanvar holatiga ko`ra, Samarqand viloyatida 204 o`rinli 23ta mehmon uylari faoliyat olib bormoqda. 2019-yilning choragida 135 o`rinli 15 ta mehmon uyi ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Aholi xonadonlarida oilaviy mehmon uylarini tashkil etish va qishloqqa kelgan mehmonlarga xizmat ko`rsatishni yo`lga qo`yish orqali ziyoratga, tabiatning so`lim go`shalariga mehmonlar sayrlari tashkil etiladi. Turistlarning qolish muddatini uzaytirish maqsadida milliy urf-odatlar va turli marosimlar o`tkazish xunarmandchilik savdosini yo`lga qo`yish, milliy taomlar tayyorlash jarayonini namoyish etish kabi xizmatlar amalga oshiriladi. Mehmon uylari mehmonxona biznesining eng jozibali tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki chet ellik sayyohlarni ko`p yulduzli o`ta zamonaviy hamda hashamatli mehmonxonalardan ko`ra, milliy uslubdagi, o`zbekona tutumga ko`ra tashkil etilgan mehmon uylari ko`proq qiziqtirmoqda. Ular ana shunday maskanlarda hordiq chiqari, xalqimiz turmush tarzi, urf odatlari va an`analari bilan yaqindan tanishishni ma`qul ko`rishyapti.

Xushmuomalalik munosabatga aloqador kishilarning kayfiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, natijada tomonlarning bir-biriga bo'lgan hurmati oshadi, bu esa o'z navbatida masalalarning ijobiy hal bo'lishiga, ish yuzasidan aloqalarning yanada mustahkamlanishiga imkon beradi.

Mehmonxonada xizmat ko'rsatuvchi hodim muomalasidagi chehrasining holati unga foyda keltirishi yoki qarshi ishlashi mumkin. Lekin foyda keltirar ekan deb, har joyda va har qanday vaziyatda ham doimo jilmayishi kerak emas, chunki ba'zi bir vaziyatlarda u o'rinli bo'lmasligi mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, boshqa barcha vaziyatlarda tabassum hamkor va suhbatdoshlarga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning kayfiyatini ko'taradi. Mehmonxona - faoliyati mahalliy va xorijiy mehmonlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan korxonadir. Shuning uchun xodimlar uchun qat'iy qoidalar - har qanday madaniy an'ana va fikrlash tarziga hurmat bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, hamma bilan muammosiz muloqot qilish istagini bildirishdadir. Istalgan mehmonxonaning g'ururi - bu turli tillarda gaplasha oladigan va o'z bilimlari va muloqotning moslashuvchanligi bilan mehmonlarga yaxshi taassurot qoldiradigan xodim.

Mehmon, xodimlarning ishiga to'sqinlik qiladigan odam emas, aksincha, u barcha xodimlarning ishlashi uchun asosiy sababdir. Mehmonxona xizmati majburan ko'rsatilishi kerak emas, balki vijdonan, yurakdan. Aksincha, har bir xodimga o'zlarini isbotlash va pul topish imkoniyatini beradigan xushmuomalalikni ta'minlaydigan mehmonlardir.

Mehmonxona –bu qulay istiqomatgoh, ma'muriy va ishlab chiqarish kompleksi bo'lib hisoblanadi. Agar mehmonxona har tomonlama qulay va albatta hamma xavfsizlik choralari ko'rilgan bo'lsa albatta sayohatchilar o'zlarini qulay his qiladilar. Sayyohlar mehmonxonada dam olishlari, ko'ngil xushlaslari, ishlashlari va biznes uchun barcha sharoitlardan foydalanishlari mumkin. Tabiiyki, mehmonxonada alohida xavfsizlik tartib-qoidalariga amal qilinadi. Ekspertlar tomonidan bu borada qonun- qoidalar ishlab chiqilgan. Ular, yong'indan saqlash, qo'riqlash, sanitariya, texnika xizmatlariva boshqalar mazkur mehmonxona uchun ishlab chiqqan barcha xavfsizlik qoidalariga rioya etish lozim. ular xodimlar va



mijozlar xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutadigan standart ish tartib-taomillariga rioya etishlari zarur. oilaviy mehmon uylarini rivojlantirish bo'yicha **taklif va tavsiyalar** keltirib o'taman:

1. Oilaviy mehmon uylariga bo'lgan talabni oshirish uchun reklama turlarini va joylashtirish vositalari orasida oilaviy mehmon uylarini ilgari surishga e'tibor berish kerak

2. Viloyatimizda oilaviy mehmon uylari sonini ko'paytirish kerak. Joylashtirish vositalari turlarning turlicha ekanligiga qaramasdan viloyat aholisi mehmon uylariga uncha qiziqishmaydi. Shuning uchun mahalliy aholini oilaviy mehmon uylariga qiziqtirish, balki kelgusida mehmon uylari turlarini ko'paytirish uchun ajoyib interyerga ega bo'lgan mehmon uylari yaratish kerak.

3. Oilaviy, yakka turistlarni qabul qila oladigan turistik firmalar va transport kompaniyalari bilan ham hamkorlik olib borishlari kerak. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aynan mavsum bo'lgan paytda yoki festivallar bo'lgan paytlarda turistlarni joylashtirish muammoga aylanishi mumkin. Shu sababli arzon bo'lgan mehmon uylari tashkil qilinsa, joylashtirishdagi muammolarni bartaraf etgan va ichki turistlar uchun arzon turar joylar tashkil etgan bo'lardik.

4. Oilaviy mehmon uylarini rag'batlantirish uchun ularda faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini shakllantirish.

5. Investitsion jarayonni rag'batlantirish. Oilaviy mehmon uylarini rivojlantirishning eng muhim sharti investitsion jarayonning jadallashuvidir. Bu Samarqand viloyati kuchli turistik salohiyatga ega bo'lib, bu esa turli xil daromad darajasiga ega oilalarga mo'ljallangan sayyohlik mahsulotlarini ya'ni integrallashgan, faol, qishloq, ekologik, rekreatsion va boshqa turdagi turli xil oilaviy sayohatlarni tashkil etish va amalga oshirish imkonini beradi. Shuning uchun ham mamlakatda investitsiya kiritgan kompaniyalarni qanadaydir rag'batlantirsak, qiziqirsak, yanada ko'plab investitsiyalarni jalb etgan bo'lar edik.

**6.** Mehmon uylarida kechki ovqatdan so'ng mehmonlarga qiziq bo'lgan animatsiya taqdim etsak ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ya'ni bu animatsiya albatta o'zimizning milliy madaniyatimizning namoyishi bo'lishi lozim.

**6.1.** Misol tariqasida, o'zimizning viloyatimizdagi "El merosi" musiqiy, tarixiy, milliy kiyimlarimizni namoyish etadigan teatrni ko'rsatib berish. O'ylashimcha, bu nafaqat chet el sayyohlariga, balki o'zimizning ichki sayyohlarning ham qiziqishini uyg'otadi.

**6.2.** Bundan tashqari, mehmon uyida gastronomik turizmni ham tashkil qilish mumkin. Kechki paytda mehmon uyining tashqi qismidagi oshxonasida o'zimizning milliy taomlarimizni pishirayotgan jarayonini ham ko'rsatib berishimiz mumkin. Albatta, har bir davlatning o'zini milliy taomi mavjud, chetdan kelgan sayyohlarga bu juda katta qiziqish uyg'otadi deb o'ylayman.

**6.3.** Bundan tashqari, mehmon uyining egalari, o'zlari animatsiya dasturini yaratishlari mumkin. Misol uchun, kichkinagina to'y marosimimizni va bu marosimdagi barcha urf-odatlarini ham ko'rsatib berishimiz ham mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi Qonuni (1999 yil 20 avgust). O'zbekistonning yangi qonunlari. – T.: Adolat, 2000 y.

### II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016yil 2 dekabrdaagi “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4861-sonli Farmoni// “Lex.uz”.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-dekabrdaagi «2018 yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida» gi PF-5290-sonli Farmoni. //“Lex.uz”.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3-fevraldaagi “O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida” gi PF-5326-sonli Farmoni.//“Lex.uz”.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdaagi “O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-2666-sonli Qarori//“Lex.uz”.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldaagi «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3509-sonli Qarori//“Lex.uz”.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7-fevraldaagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3614-sonli Qarori//“Lex.uz”.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 martdagi «2018-2019 yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3609-sonli Qarori.//“Lex.uz”.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5326-sonli farmoni ijrosini ta'minlash to'g'risidagi Qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi 631-son Qarori

### **IV. Mamlakatimiz va xorijiy olimlarning adabiyotlari**

8. Amriddinova R.S. Mehnat resurslarini boshqarish asosida turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati turizm korxonalarini misolida) /dis... i.f.n. Samarqand-2012.

9. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018 y.

10. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasining “Osnovnie pokazateli razvitiya turizma i otdixa v respublike Uzbekistan v 2016 godu” nomli statistik byulleteni ma'lumotlari.

11. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish /dis... i.f.d. Samarqand-2016.

12. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. - Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. - 184 bet.

13. Tuxliyev I.S, Qudratov G'.H., Turizm iqtisodiyoti. –S.: SamISI., 2007.

14. Tuxliyev I.S. va boshqalar. “O‘zbekistonda turizm xizmat bozorini rivojlantirishning ijtimoiy – iqtisodiy muammolari” nomli monografiya. T.: “Iqtisodiyot” 2012.

15. Tuxliyev I.S., A.B.Bektemirov, Z.I.Usmanova. Turizmda strategik marketing. O‘quv qo‘llanma. – S.: SamISI, 2010 y.- 144 b.

16. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 389 b.

17. Ильина Е.Н. Организация деятельности туризма [Электронный ресурс] / Е.Н. Ильина // Все о туризме: туристическая библиотека. Режим доступа: [www.aviacapital.ru/](http://www.aviacapital.ru/)

18. Инновации в сфере туризма [Электронный ресурс] // Официальный сайт ведущих поставщиков передовых решений в области информационных технологий в туризме. Режим доступа: <http://www.amadeus.ru/>

19. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Формальности в системе туризма Республики Узбекистан - Т: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2007.

20. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.

21. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма – Т.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.

22. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Основы безопасности в туризме. –Т.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.

## **VI. Internet saytlari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
4. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz)– O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti

5. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)– O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
6. [www.review.uz](http://www.review.uz) – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti
7. [www.cer.uz](http://www.cer.uz) – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
8. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) – biznes axborotlari portali
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Milliy kutubxona portal